

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посты



2025-yil 12-iyun
payshanba
№ 24 (4718)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqsa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

FESTIVAL

TAASSUROTLAR BIR OLAM

Yaqinda Buxoro shahrida XXI an'aniy «Ipak va ziravorlar» xalqaro festivali o'tkazildi. Tadbirlarning yuqori saviyada, xavfsiz va tartibli o'tkazilgani mahalliy va xorijiy sayyoohlarning haqli e'tirofiga sazovor bo'ldi.

– Buxoro maftunkor masjid-madrasalari va tarixiy binolari bilan go'yoki sehrli shaharga o'xshaydi, – deydi Italiya fuqarosi Chiessa Alessio. – Ushbu festivaldagi muhit barchaga sharqona kayfiyat ulashmoqda. Men tadbirlarning barchasida ishtirok etib, Italiyaga bir olam taassurot bilan qaytmoqdaman.



CHEKKA HUUDLARDA

«NAZARXAN» ENDI «YASHIL» TOIFADA

Amudaryo tumaniga kirib kelayotgan har bir kishi «Nazarxon» ovul fuqarolar yig'ini hududidan o'tadi. Mazkur hududning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida bu yerda Nazarxon ismli o'ziga to'q kishi istiqomat qilgan. Uning katta hovlisi karvonsaroy vazifasini o'tagan. Hududdan o'tgan savdogarlar hovlisiga to'xtab, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan, oziq-ovqat zaxiralarini to'ldirishgan.

Ayni kunda ham hudud joylashuvi jihatdan o'zining ahamiyatini yo'qotgan emas. Chunki bu yerdan xalqaro ahamiyatdagi A-380 avtomagistrali o'tadi. Ovul Turkmaniston Respublikasi, Nukus shahri va Qorao'zak tumani bilan chegaradosh hisoblanadi. Shuningdek, «Chilpiq» tarixiy-madaniy yodgorligi hamda «Baday to'qay» qo'riqxonasi joylashgan.

2023-yildan buyon ovul fuqarolar yig'inida tinchlik-osoyishtalikni saqlash profilaktika katta inspektori, kapitan Janabay Shamuradov zimmasiga yuklatilgan. Lavhamiz qahramoni o'tgan vaqt mobaynida qator jinoyatlarning fosh etishga erishdi.

Masalan, tumanda faoliyat olib boruvchi fermer xo'jaliklaridan birining rahbari bir necha kunlar

mobaynida suv chiqaruvchi nasosdan tanaffussiz foydalanadi. Bu profilaktika inspektorida shubha paydo qiladi. Sababi, ushbu kunlar oralig'ida nasos uchun sarflanadigan elektr energiyasi uchun to'lov ancha miqdorni tashkil etishi lozim edi. Tegishli mutaxassislar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tekshiruv davomida fermer elektr energiyasidan o'g'rinchalik foydalanim kelgani ma'lum bo'ladi. Holat yuzasidan olib borilgan dastlabki tergov harakatlari davomida yetkazilgan 600 mln so'mdan ortiq zarar undirilib, qonunbuzarga nisbatan tegishli jazo tayinlanadi.

Hudud o'tgan yillarda davomida «sariq» toifada bo'lib kelgan. Kapitan J. Shamuradovning sa'y-harakatlari tufayli joriy yilda ovul «yashil» bo'ldi.



– Bugungi kunda «Nazarxon» ovul fuqarolar yig'inidagi 870 ta xonadonda 4495 nafar fuqaro istiqomat qiladi, – deydi kapitan J. Shamuradov. – Ular turli millat vakillaridan tashkil topgan bo'lib, aholining ahil-inoqligi, tinchligini ta'minlash maqsadida OFY raisi Jumabek Aytmuratov bilan bamaslahat ish olib boramiz. Zero, ushbu hamkorlik va ogohlilikimiz tufayli hududimiz jinoyatchilikdan xoli hududlar qatorida bo'lishiga erishib kelmoqdamiz.

Hududdan xalqaro ahamiyatdagi avtomagistral o'tgani bois ko'pchilik huquqbazarlik holatlari yo'l-transport hodisalarini bilan bog'liq bo'lib kelmoqda. Birgina o'tgan yilni olib qaraydigan bo'lsak, qayd etilgan 17 ta qonunbuzarlikdan 11 tasi yo'l-transport hodisalarini tashkil etgandi. Shu boisdan, mazkur avtomagistraldagi ikkita piyodalar yo'lakchasiga kechasi yoritib turuvchi chiroqlar, ogohlantiruvchi belgilari o'rnatildi.

Hududda mahalla yettiligi tomonidan ish olib borilishi davomida profilaktika inspektori tomonidan joriy yilning o'tgan davri mobaynida 300 dan ortiq xonadon o'rganib chiqilgan. O'rganishlar davomida aniqlangan muammolar yuzasidan 35 ta xulosa berilgan. Bugungi kunga qadar muammolarning aksariyat qismi o'zining ijobjiy yechimini topgan.

Ta'kidlash joizki, profilaktika inspektori uchun barcha qulayliklarga ega to'rt xonali xizmat uyi ajratilgan. Oиласining yonida bo'lishi uning xizmatni chin ko'ngildan, bexavotir olib borishiga zamin yaratmoqda. Turmush o'rtog'i Anargul Otepova o'qituvchi. Ular birgalikda Miyorbek, Gulbahor va Qallibek ismli farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda.

**Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.**



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

TARBIYA, TA'LIM VA ISHONCH

Yoshlar kelajak bunyodkoriga aylanishi uchun uchta asosiy ustun mavjud: tarbiya, ta'lim va ishonch. Ya'ni, oila va mакtabdagи tarbiya mustahkam, ta'lim tizimi bozor iqtisodiga mos bilim berish imkoniyatiga ega bo'lishi, eng muhim – jamiyat yoshlarga ishonishi kerak. Ishonch esa insonda mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi.

– Men kasbimni juda yaxshi ko'raman, – deydi leytenant Otajon Xudoysukurov. – 2024-yilda IIB Akademiyasini tamomlab, Pastdarg'om tumani IIB JXX HPB tashkiliy tahlil guruhi inspektori lavozimida xizmat faoliyatimni boshladim. Sohaga oid bilimlarimni boyitish, kasbiy ko'nikmalarimni oshirishda ustozim – tuman IIB JXX HPB tashkiliy tahlil guruhi katta inspektori, mayor Anvar Normurodovning maslahat, yo'l-yo'riq va tavsi-

yalariga amal qilyapman. Tizimda o'tkazilayotgan turli tanlovlardan, sport musobaqlari, intellektual bellashuvlarda faol ishtiroy etyapman.

Darhaqiqat, fidoyi yoshlar yo'li – Vatanning erkinligi va taraqqiyoti uchun kurashish. Tizimning qizg'in jarayonlariga qo'shilgan har bir yosh xodim ulkan maqsadlariga tinimsiz sa'y-harakatlari bilan intilib, yangicha g'oyalar va qadriyatlarni taqdim etishga intiladi.

Ilm – o'tda yonmas, suvda cho'kmas bebaho xazina. Yoshlar esa bu xazina orqali dunyoqarashi, ong-u tafakkurini dur-u javohirlarga boyitib bormoqda. Leytenant Otajon Xudoysukurov ham shunday xodimlardan biri ekanligiga ishonchimiz komil.

**Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.**

Samarqand viloyati.



PROBATSİYA XİZMATI

INSON KO'NGLIGA YO'L

So'nggi yillarda probatsiya nazoratidagi mahkumlarni har tomonlarma qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi lavhamiz qahramoni – katta leytenant Muhammad Rahmatov ham mahkumlarning ruhiy-psixologik holatini yaxshilashga, qilmishlaridan to'g'ri xulosa chiqarishi, ijobjiy xulq-atvorlarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmaqda.

U Navoiy davlat universitetining psixologiya yo'nalishini tamomlagan. Mana, qariyb 5 yildan buyon viloyat IIB JXX Probatsiya bo'limining katta psixologi lavozimida xizmat olib boryapti. Mahkumlarning shaxsiyati, ruhiy holati va xulq-atvori bo'yicha tahlillar o'tkazish, ular-



«QORADORI – 2025»

EKINLAR ORASIDAGI OG'U

Giyohvandlik moddalarini yetishtirish, iste'mol qilish, sotish bilan shug'ullanayotgan shaxslar, afsuski, oramizza uchrab turadi. Ularning qilmishlarini o'z vaqtida aniqlab, fosh etish ichki ishlar organlari xodimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri. Illatga qarshi o'z vaqtida kurashilmasa, ko'pchilikni o'z domiga tortib ketishi, yo'ldan ozdirishi, hayotiga raxna solishi mumkin.

«Qoradori-2025» tezkortadbiri doirasida Qo'rg'ontepa tumani IIB Jinoyat qidiruv bo'limi tezkor vakillari noqonuniy giyohvandlik vositalarini yetishtirish, sotish, iste'mol qilish bilan bog'liq 13 ta holatni aniqlashdi. Shulardan biri tumanning «Yangiobod» MFY hududida amalga oshirildi. Mayor Dilmurod Qahhorov boshchiligidagi xodimlar qorong'i tushgan paytda shoshilinch ko'rsatilgan manzilga yetib bordi. Ularni ko'rgan xonadon egasining nigohlarini bezovtalik egalladi.

Hovlining har bitta joyi sinchiklab tekshirildi, hech qaysi detal ko'zdan qochirilmadi. Tomorqadagi ekinlar begona o'tlardan tozalanganida orasi dan bir tup kannabis o'simligi

chiqli. Uydagi kiyim shkafidan esa 7 bo'lak gashish moddasi topildi. Shundan so'ng xonadon egasi qonundan qochib qutula olmasligini tushunib yetdi va marixuana hamda ko'knor aralashmasidan qo'l bola usulda tayyorlagan giyohvandlik moddasini o'z ixtiyori bilan topshirdi.

Holat shu bilan yakun topmadidi. Xonadonda pnevmatik qurol va dubinka noqonuniy tarzda saqlanayotgani ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng fuqaro M.A.ga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Qonunlarimiz bag'rikenglikka asoslangan. Ba'zan jinoyat chining ijtimoiy holati inobatga olinib, unga yengillik beriladi. Nafaqa yoshiga yetib qolgani,

sog'lig'ida muammosi borligi tufayli ayblanuvchi hozircha ozodlikda. Qonun unga qanday jazo qo'llashi tergov va sud hukmidan so'ng ma'lum bo'ladi.

– Ushbu illatni batamom tugatishga bo'lgan harakatlar, o'tkazilayotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramay, giyohvandlik bilan bog'liq holatlarning kuzatilayotgani kishini tashvishga soladi. Shunday ekan, sergaklikni bir zum bo'lsa-da, yo'qotmasligimiz, bu baloning tomir otishiga yo'l qo'ymasligimiz muhim, – deydi mayor Dilmurod Qahhorov.

Nigora TO'XTAMATOVA,
o'z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

ning ijtimoiy hayotga qaytishi uchun individual rejalar tuzish hamda psixologik treninglar va seminar-maslahatlar o'tkazish uning vazifalari doirasiga kiradi.

Yaqinda katta leytenant Muhammad Rahmatov Navoiy shahar IIB JXX Probatsiya guruhi nazoratidagi xotin-qizlar bilan psixologik trening tashkil etdi. Unga jamoatchilik vakillarini hamda mutaxassis psixologlarni ham taklif qilib, hamkorlikda turli o'yinlar o'tkazdi. Tadbir yakunida muammolarni hal etish bo'yicha psixologik tavsiyalar berildi.

Doniyor Majidov (ismi o'zgartirildi) 4 yil oldin jinoyat yo'liga kirib, 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan edi. Jazoni ijro etish muassasida bir muddat bo'lib, oilaviy sharoiti va farzandlarining yoshligi hisobga olinib, probatsiya nazoratiga olindi. Muhammad u bilan bir necha marotaba psixolog sifatida suhbatlashib, maslahatlar berdi. Qiziqishi va intilishlarini qo'llab-quvvatladи, kasb tanlash bo'yicha yo'il-yo'riqlar ko'rsatdi. Doniyor uy jihozları yasovchi ustaga shogirdlikka berildi. Hozir qo'lidan ish kelib, maosh olyapti.

– Faoliyatim davomida nafaqat mahkumlarning ruhiy muammolarini hal etish choralarini belgilayman, balki ijobjiy xislatlarini aniqlab, ularni rivojlantrishga harakat qilaman. Bu ularni jinoyat ko'chasiga qaytish xavfini kamaytiradi, – deydi lavhamiz qahramoni.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

TARIXIY MASKANLAR

«O'QCHI» –
QADIMIY MAHALLA

Toshkentning qadimiyligi, tarixiy maskanlari bisyor. Shulardan biri – «O'qchi». Bu joy Shayxontohur dahasidagi qadimgi mahallalardan. «Mergancha», «Olmazor», «Tepaqishloq» mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan. Aholisi bo'zchilik, qizalish (ot yopig'i) tikuvchiligi, nilchilik (mato ranglash), katta ikki g'ildirakli Qo'qon arava o'qini yasash, degrez (cho'yangar)lik, savdo-sotiq, shahar atrofidagi mavzelarda, xususan, Qorasuv havzasida dehqonchilik (sholikorlik) va bog'dorchilik bilan shug'ullangan.

«O'qchi»ning janubi-shraqida Anhor bo'yida Toshkent shahrining Qo'ymas (Qatag'on) darvozasi joylashgan. Anhorning so'l sohilida qad ko'targan Tali Qo'ymas qo'rg'onini va darvozani qatag'on va qiyot urug'iga mansub o'qchi sarbozlar qo'riqlagan. Shu bois mahalla «O'qchi» nomi bilan yuritilgan. Uni kesib o'tgan savdo yo'li O'rko'cha, Qo'ymas (aholi og'zida esa Tuproqko'cha), keyinchalik Toshko'cha deb tilga olingan.

XIX asr oxirlarida «O'qchi» mahallasida o'g'il bolalar va qiz bolalar uchun alohidaloahida 2 ta savod chiqarish maktabi faoliyat ko'rsatgan. Yangi maktab o'qituvchilar uchun dastlabki bilim yurti ochilgan. 1938-yilda 76-sonli o'rta ta'lim maktabining ko'p qavatli binosi qad ko'targan.

Qadimda Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i Binkat orqali o'tib, xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishida muhim o'rinn tutgan. Ayniqsa, Binkatda yasalgan o'q-yoy butun sharqda «Kamon Shoshiy» nomi bilan mashhur bo'lgan. Uzoqqa otiladigan va nishonga bexato uradigan kamonlar sharq adibiliari asarlarida ta'riflangan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida «Toshkentda kamon va kamon o'qi yasaydigan ustalarning mahorati butun viloyatga tarqalgan. Ular patli va patsiz kamon o'qlarini yasaganlar» deb yozadi. O'sha vaqtarda kamon va uning o'qini yasash mahorati juda taqdirlangan.

1797-yil ma'lumotlariga qaraganda, Toshkentda shahar hokimi Yunusxo'ja hisobidan maosh oлган 2000 ga yaqin doimiy askar bo'lgan. Ular o'q-yoy, pilta miltiq, qilich va qalqon bilan qurollangan maxsus bo'linmalardan tuzilgan. Yunusxo'ja qo'shinlarida 20 ga yaqin to'p bo'lgan. O'qlar asosan Toshkentning o'zida, «O'qchi» mahallasida quyilgan.

Hozirda bu yerda zamonaliv savdo va ishbilarmonlik markazlari hamda turarjoy binolari buning etilgan. Mahalla o'rnida mahobatli osmono'par binolar qad rostlab – Tashkent Cityga aylangan.

Sarvar SOBIROV
tayyorladi.



EKSPERT-KRIMINALISTIKA

TILSIMLAR BILAN TILLASHIB...

Jinoyat sodir etildi. Uni kim, qanday holatda, qachon va qay yo'sinda sodir etgan? Bu kabi savollarga javob topishda tergov-tezkor guruhi tarkibidagi ekspert-kriminalistning ko'magi juda asqatadi. Soha vakillari har qanday murakkab va chigal vaziyatda o'z bilimi, tajribasiga tayangan holda, ziyraklik bilan voqeа joyini ko'zdan kechirib, tilsimlarni ochishga muvaffaq bo'lishadi.

Bu borada Buxoro viloyati IIB EKM xodimlari tomonidan joriy yilning o'tgan oylari davomida 1300 martadan ko'proq voqeа joyi ko'zdan kechirilib, tergov harakatlarda mutaxassis sifatida ishtirok etildi. Hodisa joylarining 1157 tasidan 1400 ta ashyoviy dalil va izlar olinib, tergov organlariga taqdim qilindi.

Markaz va uning quyi tizim xodimlari tomonidan 5 oy davomida tergov va surishtiruv organlarining qarorlariga asosan, 2355 ta eks-

pertiza xulosasi bajarildi. Shulardan 112 ta daktiloskopik, 50 ta trasologik, 83 ta ballistik, 145 ta xatshunoslik, 142 ta hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi, 309 ta giyohvandlik vostitalari hamda 88 ta maxsus kimyoviy moddalar ekspertizasi, 771 ta sovuq qurollar ekspertizasi, 2 tadan gazli qurollar va elektroshok qurilmalari ekspertiza turlari tadqiqotlari o'tkazildi.

Bundan tashqari, markaz-dagi mavjud avtomatlashtirilgan



IIB EKM katta eksperti, podpolkovnik Shavkat Fozilov.

tizim bazasini boyitish, jinoyatlar ni qo'l-barmoq izlari yordamida fosh etish samaradorligini yanada oshirish maqsadida JQB, HPB, M va FR hamda tergov xizmatlarning o'zaro hamkorligini yo'liga qo'yib, profilaktik ro'yxatda turuvchi, muqaddam sudlangan, jinoyat sodir etishga moyil va boshqa toifadagi shaxslar daktiloskopik kartalarining bazaga kiritib borilishi ta'minlanmoqda. O'tgan davr mobaynida mazkur bazaga 877 ta daktokarta joylashtirildi. Hozirgi kunga qadar mazkur dastur bazasiga viloyatimiz hududiga yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanish uchun boshqa viloyatlardan kelgan, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarga ketayotgan, deportatsiya qilingan, Vatanga qaytish guvoh-

nomasi bilan qaytganlar, fuqarolik pasportini yo'qotgan, shuningdek, profilaktik ro'yxatda turuvchi, muqaddam sudlangan, uzoq muddatga respublika hududidan chiqib ketgan shaxslarning 521320 ta daktokartasi kiritildi.

Qo'l-barmoq izlari yordamida 31 ta jinoyat fosh etildi, 7 ta shassi noma'lum murdaning shaxsi aniqlandi. Shuningdek, jinoyat va huquqbuzarliklar yuzasidan 42 ta tayinlangan yozma topshiriq asosida shaxsni tashqi qiyofa bo'yicha identifikasiya qilish bazasi orqali taqdim etilgan videotasvir va fotosuratlardagi shaxslarning shaxsiga aniqlik kiritildi.

Erkin RAJABOV,
podpolkovnik.



Katta ekspert, kapitan Bexzod Hasanov ashyoviy dalilni ko'zdan kechirmoqda.

XIZMATLARDA

Surxondaryo viloyati qo'shni Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Xususan, Uzun tumanining «Toltug'ay», «Oqmachit», «Bobotog» va «Yangiobod» mahallalari chegara huddida joylashgan. Olis joyda yashagani uchun aholi hadeganda tuman markazi-ga bora olmaydi. Shu bois viloyat IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Husniddin Xalliyev boshchiligidagi va boshqarmaning mas'ul xodimlari ishtirokida ushbu mahallalarda istiqomat qila-yotgan fuqarolarning sohaga oid muammolarini o'rGANISH hamda aniqlangan muammo-larini ijobji hal qilish maqsa-dida sayyor qabul o'tkazildi.

AHILLIKDA ISH UNAR, MUSHKULLAR OSON BO'LAR



Sayyor qabul davomida 183 nafar fuqaroning murojaati o'rganib chiqildi. Jumladan, tuman hududida doimiy yashab kelayotgan 28 nafar fuqaroligi bo'Imagan shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish masalasida murojaat qildi. Ularga bu masalada tegishli huj-

jatlar topshirish tartiblari yuzasidan huquqiy maslahat berildi.

Shuningdek, tuman markaza-ga borish imkoniyati bo'Imagan 150 nafar keksa yoshdagи hamda nogironligi bo'lgan fuqaroga belgilangan tartibda ID-kartalar rasmiylashtirib berildi.

Bundan tashqari, tuman hududida vaqtinchalik ro'yxatdan o'tib yashab kelayotgan 4 nafar Tojikiston Respublikasi hamda 1 nafar Rossiya Federatsiyasi fuqarolariga tegishli qarorga asosan, respublikada vaqtincha va doimiy yashash tartiblari bo'yicha profilaktik tushuntirishlar berildi.

Murojaatni hal qilish faqat majburiyat emas, balki xalq ishonchini oqlashdir. Chunki har bir murojaat ortida inson taqdiri, umid va ishonch yotadi. Davlat idoralarining xalqqa yaqin bo'lishi, muammolar ni joyida o'rganib, samarali yechim topishi jamiyatdagi barqarorlik va ishonch muhitini mustahkmalaydi. Chegarabo'yи va chekka hududlardagi aholi murojaatlariga yechim topish orqali davlat va fuqaro o'rtasidagi ko'priq yanada mustahkamlanadi,adolat hamda insonparvarlik mezonlari amalda o'z ifodasini topadi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

Летние каникулы



ОТДЫХ И ПОЛЕЗНЫЙ ДОСУГ

В эти дни оздоровительный лагерь «Нилуфар» в Тупраккалинском районе превратился в любимое место детей. В подшефном лагере районный отдел внутренних дел планирует в три смены организовать увлекательный отдых для более чем 360 школьников. В первой смене здесь пребывают 120 мальчишек и девчонок.

В лагере созданы все необходимые условия. Действуют библиотека, комнаты отдыха, площадки, оснащенные необходимым инвентарем. Школьники с увлечением проводят время в секциях футбола, волейбола, баскетбола, настольного тенниса, шахмат и шашек, занимаются в кружках рукоделия, вязания и др.

Педагоги организовывают интересные мероприятия – «Природа – наш общий дом», «Кем стать?», «Мы – дети великой страны», «Созидатели будущего». Расширению кругозора помогают интеллектуальные игры «Представь свои


таланты», «Спор знатоков», «Да здравствует дружба!». Активные участники удостаиваются подарков от спонсоров.

– Сотрудники органов внутренних дел также задействованы в организации мероприятий, – говорит старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ районного ОВД подполковник Шахноза Ботирова. – Проводим профилактические беседы, обучаем ПДД, прививаем навыки безопасного поведения.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

■ Бухарская область



В ЧИСЛЕ ЛУЧШИХ

Майор Бехзод Файзуллоев недавно назначен начальником следственного отдела при ОВД Гиждуванского района. Коллеги отзываются о нем как о профессионале своего дела. За годы службы он участвовал в расследовании множества сложных, многоэпизодных преступлений, каждый раз демонстрируя высокий уровень мастерства.

Помимо следственной деятельности, он активно ведет профилактическую работу, организовывая встречи на правовую тематику в махаллях, на предприятиях, в организациях и образовательных учреждениях. Это способствует предупреждению противоправных деяний, укрепляет общественную безопасность.

До назначения майор Б. Файзуллоев являлся старшим следователем следственной группы при ОВД Вабкентского района. Он и его коллеги регулярно участво-

вали в профессиональных смотрах-конкурсах, добиваясь значительных успехов. В течение трех лет он занимал первое место в конкурсе «Лучший следователь», а на республиканском этапе входил в число призеров. По итогам 2024 года в масштабе области группа была победителем в номинации «Самая лучшая следственная группа», а сам майор – награжден Почетной грамотой.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

В образовательных учреждениях МВД

ВРЕМЯ ПРОВЕРКИ ЗНАНИЙ



В 2024-2025 учебном году Ферганский академический лицей МВД заканчивают 183 учащихся. Выпускники сдают итоговые государственные экзамены по родному и иностранному языкам, истории и правоведению.

В настоящее время этот процесс набирает обороты. В частности, состоявшиеся экзамены по правоведению прошли организованно и объективно. Они подтвердили хорошие знания выпускников.

– Планирую поступать в Академию МВД, – говорит выпускник Абдурашидов.

Абдуносит СИДИКОВ,
соб. корр.

Ферганская область.



Tuman IIOMFBda

BOR IMKONIYATNI ISHGA SOLIB

Uchtepa tumani poytaxtning bir nechta sanoat korxonalaridan tashqari, katta-katta bozorlari va aholi hordiq chiqaradigan madaniy maskanlari bilan mashhur hududlardan biri. Bu ichki ishlar organlari xodimlaridan hushyorlik, ziyraklik va kasbiga bo'lgan sadoqatni talab etadi.

– Shaxsiy tarkib bilan «xodimbay» ishlash tizimi alohida ahamiyat kasb etadi, – deydi tuman IIOMFB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rnbosari, podpolkovnik Sharapat Kudiyarov. – Ayniqsa, xodimlarning xizmat intizomiga rioya qilishi, ularning muammolarini o'rganish va ruhiy holatidan muntazam ravishda boxabar bo'lib borish soha rivoji uchun juda muhim. Xizmatga noloyiq, o'z xulqi va yurish-turishi, qo'pol muomalasi bilan boshqalarga salbiy ta'sir o'tkazayotgan hamda qonunbuzarlikka moyil xodimlar bo'lsa, ular bilan o'z vaqtida «xayrlashilmoxda».

O'z navbatida, fidoyi va kasbiga sadoqatli mayorlar Fazliddin Isroilov, Jasurbek Yuldashev, Nasrulla Zokirov, kapitan Sa'dulla Umarov, katta leytenantlar Obid Sobirov, Nargiza Achilova va Sirojiddin Saidovlarning nomlarini alohida mammuniyat ila ta'kidlab o'tish joiz.

Tuman IIOMFB shaxsiy tarkibi o'rtaida yaqinda «Oila – xodim – rahbar: samimiy muloqot» oyligi yuzasidan tadbir tashkil

di. Unda xizmat intizomi, fuqarolar bilan muloqotda xushmuomala bo'lish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Tadbir davomida hamkasblariga o'rnak bo'layotgan 20 nafar xodimning ota-onalari tashakkurnoma va sovg'alar bilan taqdirlandi. Shundan so'ng «Nafsning so'nggi manzili» nomli videorolik namoyish etildi.

tergov qildi. Jinoyatlarining oldini olish yuzasidan tegishli idoralarga 13 ta taqdimnoma kiritdi. Shuningdek, 13 marotaba joylarda o'tkazgan uchrashuvlarining 8 tasi huquqiy-targ'ibot yo'nalishida bo'lgan.

Tergov bilan ekspert-kriminalistikani ayro tasavvur qilish qiyin. Ta'bir joiz bo'lsa, ekspert-kriminalist mavhum bo'lgan holatga oydinlik kiritilishida ashyoviy dalillarni o'rganib, kala-vanining uchini tergovchiga tutqazadi. Ana shunday tajribali xodimlardan biri – EKB katta eksperti,



Podpolkovnik Qahhor Hakimov

Tuman IIOMFB huzu-ridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, podpolkovnik Baxtiyor Abdullayev tergovni sifatli olib borish, jino-yatga jazo muqarrarligini

podpolkovnik Qahhor Hakimov tergov-tezkor guruhi bilan voqeja joyiga chiqarkan, hech bir detalni ko'zdan qochir-



Podpolkovnik Baxtiyor Abdullayev

etildi. Hududdagi madaniyat saroyida bo'lib o'tgan uchrashuvda tuman hokimi B.Mamajonov, IIOMFB boshlig'i, polkovnik D. Mirsodiqov hamda xodimlarining ota-onalari qatnash-

ta'minlash va tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash yo'lida bor bilim va salohiyatini ishga solib xizmat qilib kelmoqda. Xususan, u joriy yilning o'tgan 5 oyi mobaynida 19 ta jinoyat ishini

maslikka harakat qiladi. U joriy yilning o'tgan 5 oyi davomida 2 ta jinoyatning «issiq izida» fosh etilishi-ga o'z hissasini qo'shgan. Shuningdek, 60 marotaba tezkor qidiruv va tergov



Podpolkovnik Sharapat Kudiyarov



Tergovchi, kapitan Sherzod Aminjonov va navbatchilik qismi haydovchisi, safdor Elyor Rahmonov tergov-tezkor guruhi tarkibida voqeja joyiga yo'l olmoqda.

harakatlarida qatnashib, 178 ta holatda voqeja joyini ko'zdan kechirishda ishtirok etgan.



Katta leytenant Ziyodullo Kamoldinov

dinov hamkasbi – leytenant Elbek Xurramov bilan 7200 ga yaqin aholiga xizmat ko'rsatadi. Ular «sariq»

toifaga kiruvchi hududni «yashil»ga aylantirish uchun mahalla faol-lari, yettilikning boshqa a'zolari hamda tegishli idora vakillari bilan hamkorlikda harakat qilishmoqda.

Tinchlik, xotirjamlik va fuqarolarning ro-ziliga erishish o'z-o'zidan bo'lib qolmaydi. Buning uchun ishning ko'zini bilish, har bir murojaatga atroficha yondashish, muammoni o'z vaqtida bartaraf etish dar-kor. O'yaymizki, Uchtepa tumani IIOMFB rahbariyati va shaxsiy tarkibi bu yo'lda o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishadi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

 MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI

Bugun bashariyat taraqqiyotning yangidan-yangi cho'qqlarini zabit etayotir. Afsuski, porloq istiqbolga xizmat qiladigan ulkan yutuqlarga erishilishi qatorida, insoniyat kelajagiga tahdid tug'diruvchi bir qancha omillar hamon saqlanib qolmoqda. Shulardan biri, allaqachon global muammoga aylangan giyohvandlik illatidir.



Tahliillar ko'rsatadiki, giyohvandlikka mubtalo bo'lganlar soni yildan-yilga oshib boryapti. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi paytda dunyoda 200 milliondan ortiq (boshqa xalqaro tashkilotlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra esa, 500 milliondan ziyod) kishi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini iste'mol qiladi. Eng yomoni, ularning aksariyat qismi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.

Giyohvandlikning ayanchli va og'ir oqibatlarini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Ushbu illat oqibatida har yili 200 mingdan ortiq kishi hayotdan bevaqt ko'z yumishi, dunyoda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri kelayotgani buning tasdig'idir.

Darhaqiqat, giyohvandlik jinoyatchilik bilan bevosita bog'liq holda kechadi. Negaki, narkotiklarni qo'lga kiritish uchun pul topish maqsadida og'ir oqibatli jinoyatlar sodir etiladi. Qolaversa, giyohvandlik ta'sirida, sarkush holda tez-tez jinoyatlarga qo'l uriladi.

Bundan tashqari, giyohvandlik iqtisodiy (katta pul sarflanishi, daromadlarning yo'qolishi, ishni yo'qotish, qarzga botish, talonchilik, tilanchilik va boshq.) hamda ma'naviy (oilalarning buzilishi, befarqlik, tushkunlik, norozlik, xudbinlik va boshq.) asoratlarini keltirib chiqaradi.

Yanada achinarlisi, homiladorlik davrida narkotik moddani iste'mol qilgan ayollardan dunyoga kelgan bolalar falaj bo'lib tug'iladi yoki odatda

hayotining 2–3 kunida nobud bo'ladi.

Xullas, giyohvandlik odamlarning hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dradi, jinoyatlarning o'shiga imkon yaratadi, jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid soladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarini yemiradi. Bu illatga berilganlarning aksariyati 30 yoshgacha ham yashamaydi. Bir so'z bilan aytganda, giyohvandlik aksariyat hollarda o'lim bilan yakun topadi.

Hozirgi kunda butun dunyoda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham «asr vabosi»ga qarshi jiddiy kurash olib borilmoida. O'zbekiston BMTning 1961-yildagi «Narkotik moddalar to'g'risida»gi Yagona Konvensiyasiga, 1971-yildagi «Psixotrop moddalar to'g'risida»gi hamda 1988-yildagi «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muon-mala qilishga qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiyalariga a'zo bo'lgan. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, unda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga zid ravishda muon-mala bo'lishning har qanday ko'rinishiga qarshi jinoi javobgarlik belgilangan.

Davlatimiz rahbari to-

monidan 2024-yil 6-mayda «O'zbekiston Respublikasi-da giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'siri ni bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon imzolandi. Unga ko'ra, giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024–2028-yillarga mo'ljallangan milliy strategiya qabul qilindi.

Farmonda Milliy strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilandi:

- aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda «giyohvandlikka qarshi immunitet»ni, o'quvchi va talabalar orasida kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni iste'mol qilishga murosasiz munosabatni shakllantirish, ta'limga muassasalarida psixofao'l moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi ta'sirchan targ'ibot-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik me-xanizmlarni joriy etish;

- aholiga sifatli narkologik yordam ko'rsatish tizimini yangi usullar asosida rivojlantirish, giyohvandlik va zaharvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan

da, raqamlashtirish orqali rivojlantirish;

- davlat va xususiy tibbiyot muassasalarini hamda dorixonalarning giyohvandlik vositalidan tibbiyotda foydalanish amaliyotini nazorat qilish, shuningdek, farmatsevtika korxonalarini, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosini bilan shug'ullanuvchi subyektlar mas'uliyatini



oshirishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

- giyohvandlikni davolash va narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish hamda ommaga yetka-zishni ta'minlash.

Mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashni takomillashtirishga qaratilgan farmonda, shu-



takomillashtirishga qaratilgan manzilli choralarini amalgao shirish;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar hamda prekursorlarning noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa, internet tarmog'idagi usullari ga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini, birinchi navbat-

ningdek, «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi qonunning yangi tahririni ishlab chiqish ham ko'zda tutilgan.

Giyohvandlik vositalari ning qonunga xilof ravishda aylanishiga qarshi kurashish borasida mamlakatimiz ichki ishlar organlari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yilda respublika bo'yicha

giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bo'lgan dori vositalari bilan bog'liq 12278 ta jinoiy holat aniqlandi. Shundan 39 foizi saqlash, 35 foizi o'tkazish, 16 foizi yetishtirish, 7 foizi tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bo'lgan dori vositalari bilan bog'liq, 3 foizi esa kontrabanda jinoylariga to'g'ri keldi. Noqonuniy muomaladan 2 tonna 138 kilogramm 233 gramm giyohvandlik va psixotrop moddalar olib qo'yildi. Olingen ashyoviy dalillardan 735,8 kilogrammi marixuana, 518 kilogrammi gashish, 207,1 kilogrammi ko'knor, 155,5 kilogrammi opiy, 119,1 kilogrammi sintetik, 116,2 kilogrammi geroin giyohvandlik vositasidir.

Joriy yilning dastlabki 4 oyi davomida esa giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bilan bog'liq 4506 ta jinoyat aniqlandi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizza yoki 1133 taga ko'p. Shu davrda noqonuniy muomaladan 1 tonna 431 gramm 611 gramm miqdorida giyohvandlik vositalari olindi. Shu bilan birga, giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgani uchun 2649 nafar shaxsga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan. Ulardan 882 nafari yoki 35 foizi 30 yoshgacha shaxslarni tashkil etadi.

Giyohvandlik – illat, unga qarshi kurashish faqat davlat organlarining emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Bu borada, ayniqsa, oila, mahalla, ta'limga muassasalarini va huquqni muhofaza qilish organlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Zero, birmalikdagagi, hamijihatlikdagagi sa'y-harakatlar orqali mazkur global muammoga qarshi samarali kurash olib borish, aholini, xususan, yoshlarni bu balodan asrash mumkin.

**Sardorbek KURAMBOYEV,
podpolkovnik.
Kamol OLLOYOROV,
o'z muxbirimiz.**



Maqolani qoraqalpoq tilida ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

■ **Джизакская область**

С УЧЕТОМ ВОЗЛОЖЕННЫХ ЗАДАЧ

Автопарк батальона патрульно-постовой службы УООП УВД области пополнился новыми служебными автомобилями марки «Cobalt».



Пять из них, предоставленные Министерством внутренних дел, оснащены современными системами видеонаблюдения с охватом 360 градусов, датчиками звуковых шумов, а также средствами идентификации личности. Эти технические средства

позволяют эффективно выявлять правонарушителей, находить без вести пропавших граждан и разыскиваемых лиц.

Планируется, что служебные автомобили будут задействованы преимущественно для мониторинга общественного порядка в




городе Джизаке, а при необходимости – и в районах области. Помимо автотранспорта, МВД передало в распоряжение подразделений восемь комплектов оргтехники.

Во время церемонии передачи техники и оборудования было

отмечено, что в системе ОВД осуществляются масштабные реформы. За последние два года личный состав батальона патрульно-постовой службы получил в распоряжение нагрудные видеокамеры, иное специальное оборудование, что существенно повысило эффективность несения службы.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

Служба probation



ПОМОЩЬ НА ПУТИ К ИСПРАВЛЕНИЮ

Функции службы probation выходят далеко за рамки простого надзора за лицами, осужденными к наказаниям, не связанным с лишением свободы. Ее главная цель – оградить от рецидива, не допустить, чтобы человек снова совершил неверный шаг, помочь ему вернуться к полноценной, законопослушной жизни.

Подразделения probation осуществляют комплекс мероприятий, включающих реализацию мер профилактики, правового просвещения, психолого-педагогического сопровождения, социальной помощи. Индивидуальные планы поддержки и вовлечение в социальные проекты направлены на формирование у подопечных ответственного отношения к своей судьбе.

Целью мероприятия, состоявшегося в УКД ОВД Сергелийского района города Ташкента, было оказание содействия женщинам, находящимся под кон-

тролем органов внутренних дел. Обращения рассматривала группа специалистов в составе сотрудников районного отдела по делам семьи и женщин, Медицинского объединения, Центра содействия занятости, отдела probation, инспекторов по вопросам женщин ОПП РОВД.

– Получила квалифицированный ответ на вопрос, касающийся уплаты алиментов ребенку бывшим мужем, – поделилась Альмира Б., одна из подучетных. Она также отметила, что юристы обещали помочь с подготовкой исковых документов.

Мероприятие принесло конкретные результаты. 8 женщинам оформлены направления на бесплатное лечение. Взято на контроль выделение субсидий на жилье 6 женщинам. Еще 8 предоставлены консультации по вопросам уплаты алиментов, установления отцовства и др.

Служба probation наглядно демонстрирует, что общество готово дать шанс на исправление, помочь преодолеть трудности и вернуться на правильный путь.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

Преступление и наказание

ОТЗЫВЧИВЫЕ «БЛАГОДЕТЕЛИ»

Как известно, спрос рождает предложение. Именно на этом решили сколотить состояние жители Нукуса Арзикбек Айтбеков и Мансур Саекеев (здесь и далее имена и фамилии изменены).

Предварительно сговорившись, они пообещали гражданину З. Утешеву за 20 миллионов сумов оформить через знакомых земельный участок, расположенный в сельском сходе граждан «Боз овул».

На радостях З. Утешев поделился новостью с Т. Халмурадовым: «Вот, добрые люди помогают с покупкой участка». Тот тоже решил воспользоваться услугами отзывчивой пары и попросил познакомить его с ними.

Во время встречи с Т. Халмурадовым дельцы заверили, что их знакомый работает в учреждении, ведающем вопросами выделения земельных участков. За обещанные четыре сотки Халмурадов в течение двух месяцев частями выплатил 33 миллиона сумов.

В сети мошенников подобным образом попадает К. Алиев: за земельный участок он передает им 15 миллионов сумов. Полученные денежные средства злоумышленники тратят на собственные нужды...

Прошло время. Жертвы преступной пары начали требовать документы на право владения обещанными участками. Тогда злоумышленники изготавливают на компьютере поддельные документы и вручают их клиентам. Но все вскрылось, когда покупатели намеревались заняться на приобретенных участках возведением жилья.

Мошенников задержали. Вина подельников была доказана.

Данный пример показателен: низкая правовая грамотность, стремление обойти закон не приводят к хорошему.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

Республика Каракалпакстан.



www.postda.uz



t.me/postdaramsiy



www.facebook.com/postdaуз



www.instagram.com/postda_uz

 FIDOYI XODIMLAR

ER YIGITNI EL DUOSI KO'KARTIRAR

SAMARQAND VILOYATI. Samarqand shahridan 120 chaqirim uzoqlikdagi Paxtachi tumani «Saroy» mahallasidagi 1021 ta oilada 3675 nafar aholi istiqomat qiladi. Maqolamiz qahramoni – katta leytenant Dilshod Rahmatov mazkur MFYda profilaktika inspektori lavozimida xizmat olib boradi.



Payariq tumanida tug'i-lib o'sgan Dilshodbek bo'lalik chog'laridan oq, uzoq yillar ichki ishlar organlarida ishlagan otasi, ist'e-fodagi podpolkovnik Abdurauf Rahmatovning har kuni xizmat libosini kiyib ishga otlanishiga havas qilardi. U umumta'lim maktabini tamomlagach, Samarqand qishloq xo'jaligi insti-

tutiga o'qishga kirdi. 2013-yilda oliyohni tugallab, ilk ish faoliyatini Payariq tuman hokimiyyatida ish yurituvchi sifatida boshladi. Keyinchalik tumandagi «Navro'z» MFYda profilaktika inspektori yordamchisi bo'ldi. 2020-yildan buyon «Saroy» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida xizmat faoliyatini boshla-

di. 2023-yilda esa profilaktika katta inspektori etib tayinlandi.

Mazkur mahalla tuman markazidan 15 chaqirim uzoqlikda joylashgan bo'lib, bu yerda xavfsizlik va tinchlikni saqlash profilaktika inspektoridan ikki-uch karra hushyorlikni talab etishini bilgan lavhamiz qahramoni zimmasidagi mas'uliyatlari vazifalarini mas'ullar va hamkorlarning ham fikr-mulohazalarini eshitib, tahlil qilib, sidqidandan bajarishga odatlangan. Huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa, tungi vaqtarda osoyishtalikni ta'minlashda xizmat majburi-

yatlariga qat'iy amal qiladi. Shu bois ham mahalla «yashil» toifada.

– Mahalladami, jamoadami qonun ustuvorligiga erishish, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish uchun, avvalo, jamoat tartibini saqlash zarur, – deydi «Saroy» MFY raisi Inobat Muhammadiyeva. – Bu, o'z navbatida, aholining huquqiy savodonligi, huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan profilaktika ishlarini kuchaytirishni taqozo etadi. Tadbirlar maqsadli va samarali bo'l-mog'i kerak. Odamlarning roziligini olish oson emas.

Dilshod Rahmatov buni uddalayapti.

– Qasamyod – O'zbekiston Respublikasi xalqi va Prezidentiga sadoqat bilan xizmat qilish uchun ichilgan ontdir, – deydi katta leytenant D. Rahmatov. – Qasamyodiga sodiq qolish ichki ishlar organlari xodimlaridan metin iroda va yuksak vatanparvarlikni talab qiladi. Men bu yo'lda izlanish va harakat qilishdan to'xtamayman. Chunki kasbimni yaxshi ko'raman.

Baxtli oila sohibining tanlagan kasb-u koridan baraka, ishida unum bo'ladi. Ishdan keyin xizmat uyiga, oilasi bag'rige oshiqadigan qahramonimiz ham namunali oila boshlig'i. U rafiqasi Muhayyoxon bilan shiringina qizalog'i Afro'zanni ulg'aytirayapti. Ertangi kun uchun ko'ngliga tukkan maqsadlari, istaklari bisyor. Bu borada har qancha mashaqqatlar bo'lsa-da, uni cho'chitmaydi. G'ayrati va shijoati jo'shib, marrani band olib, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish shiori. Zero, er yigitni el duosi ko'kartirar.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.



TERGOV: SABAB, DALIL VA XULOSA UYG'UNLIGI

TOSHKENT VILOYATI. Bugungi kun tergovchisi qonun va kodekslar, xalqaro huquqiy normalarini ham o'zlashtirishi, bundan tashqari, jinoyatlarni keltirib chiqargan sabablarni o'rganib, ularni bartaraf qilish bo'yicha aniq takliflar berishi nihoyatda muhim.



Mayor Umidjon Yusupov II Akademiyasini tamomlagach, 2014-yildan ichki ishlar organlarida xizmat qilmoqda. U xizmat faoliyatining dastlabki bosqichida O'rtaçirchiq tumani IIBda tergovchi, katta tergovchi sifatida xizmat qilib, soha sir-asrorlarini astoydil o'rgandi. Bilimi, kirishimliligi hamda ziyrakligi bilan safdoshlari va rabbariyat e'tiborini qozondi. Qilingan mehnatlar bezj ketmadi. 2021-yilda Piskent tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasiga boshqliq etib tayinlandi. U. Yusupov tumandagi ikki yillik samarali faoliyatidan so'ng hozirgi lavozimi – Olmalik shahar IIB huzuridagi Tergov bo'linmasiga rahbar bo'ldi.

– Tergov yo'naliishi xodimlari har bir holatni «nuqta-verguligacha» ko'zdan kechirib, aniq, puxta va inkor etib bo'lmash dalillarga asosan xolisona ish yuritishi zarur. Ya'ni, tergovchilar nafaqat sinchkov, balki mantiq ilmida ham yuqori darajaga ega bo'lishi darkor. Negaki, tergovchilar, tom ma'noda, tizim «zargarlar»dir. Bu e'tirofga munosib bo'lish uchun o'z ustimizda muntazam ishlamoqdamiz, – deydi lavhamiz qahramoni.

Ma'lumotlarga qaraganda, joriy yilning so'nggi uch oy davomi-

da shahar IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchilar tomonidan 600 dan ziyod tergov ishlari amalga oshirilgan. Tergov jarayonlariga asosan firbigarlik, birovning nomiga kredit rasmiylashtirib, uni to'lamaslik, o'g'irlik va boshqa holatlar asos bo'lgan.

Fuqaro Dilmurod Kimsanov (voqeasi ishtiokchilarining ism-shariflari o'zgartirildi) shaharda istiqomat qiluvchi Asqarovlar oilasining voyaga yetmagan farzandini qonunga xilof ravishda o'g'irlab, uni oilasi bag'rige qaytarish evaziga ota-onasidan 200 million so'm miqdorida pul talab qilib, agar pullarni berishmasa, farzandining hayoti xavf ostida qolishini bildirib, tahdid qilgan. Farzandidan xavotir olgan Asqarovlar ichki ishlar organlariga ariza bilan murojaat qilgan. Natijada bola o'g'irlagan shaxs tezkor ravishda qo'liga olinib, unga nisbatan qamoqqa olish ehtiyoj chorasi qo'llanilgan.

Hozirda mazkur holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoiy ish qo'zg'atilib, Olmalik shahar IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tomonidan tergov harakatlari olib borilmoqda.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

 БИЗ – КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИМИЗ!

ҲАЛОЛЛИК ҲАМИША ТОТЛИ

Фиждувон тумани «Улфатбиби» маҳалласи ҳудудида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида хизмат олиб бораётган вилоят ИИБ ЖХХ ЙХХБ 7-сафарбарлик гурухи ЙПХ инспектори, сафдор Рафиқ Раҳимов ҳайдовчи А.Ш. бошқарувидаги «Матиз» русумли автотранспорт воситасини тұхтатади. Ҳайдовчи спиртли ичимлик истеъмол қылған ҳолда автомашинани бошқарып келаётгани маълум бўлади. Боз устига, машинани бошқариш ҳуқуқини берувчи хужжатлари ҳам йўқлиги аниқланади. Шу сабабли ҳайдовчига нисбатан маъмурӣ баённома расмийлаштирилиб, автоулов жарима майдонига жойлаштирилаётган вақтида ҳуқуқбузар оёғи куйган товуққа ўхшаб типиричилаб қолади. Ҳатто бу ишларни босди-босди қилса, эвазига 500 АҚШ доллари беришини иддао қиласи.



ЙПХ инспектори, сафдор Р. Раҳимов пора бериш ва олиш жиноят экани, бунинг учун жиноий жавобгарликка тортилиши мумкинлигини қайта-қайта тушунтиришига қарамасдан, фуқаро А.Ш. ниятидан қайтмади. Натижада ходим ҳолат юзасидан вилоят ИИБ раҳбарияти номига билдирги билан мурожаат қиласи.

ИИВ ШХББ вилоят бўйича бошқармаси ҳамда бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари ҳамкорлигида ўтказилган тезкор тадбирда А.Ш. сафдор Р. Раҳимовга 500 АҚШ доллари микдоридаги пулни пора тариқасида берган вақтида ушланди.

Сафдор Рафиқ Раҳимов Бухоро автомобиль йўллари коллежини тугатгач, тизимдаги фаолиятини 2020 йили Бухоро туманида профилактика инспектори ёрдамчиси лавозимида бошлади. Уч йилдирки, ҳозир эгаллаб турган лавозимида фаолият кўрсатиб келмоқда. У айни пайтда Тошкент иқтисодиёт ва молия институтининг сиртқи йўналишида таҳсил олмоқда.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ӯз мухбиришим.

Бухоро вилояти.



Постда... «Постда»...

Гарчи биз учун андаккина ажна-бийроқ сўз бўлгани билан барibir қарийб бир аср ичидан миллийлашиб кетди ва бугун исталган одамдан унинг маъносини сўрасангиз иккиланмасдан айтиб бера олади. Чунки айнан ана шу ном ва сўзниң юки, залвори бўлакча-да.

Вақтнинг ўтишини қаранг, шу номдаги қадрдан нашр чоп этила бошлаганига 95 йил тўлди. Албатта бу ҳазилакам рақам эмас. Унинг замирида неча юзлаб инсонларнинг умр йўллари, машақатли меҳнати ва шарафли бурчни адо этишдек улкан масъулият ётибди. Шу маънода мен ҳам барча юртдошларим, ушбу соҳа вакиллари, ҳамкасларим қатори «Postda – На посту» газетасининг заҳматкаш ижодкорлариға ҳамиша умр хотиржамлиги-ни тилайман.

Тасаввур қиляпсизми, биргина «хотиржамлик» деган улуғ моҳиятга эга сўз ортида бевосита ушбу нашр муассиси бўлмиш Ички ишлар вазирлиги тизимида хизмат қилаётган минг-минглаб инсонлар зиммасига юқлатилган улкан вазифа – улуғ Ватанимизнинг, жонажон ҳалқимизнинг тинчлик ва осойишталиги, барқарорлигини сақлашдек бекиёс бурч, қарздорлик ҳисси турибди.

Қизиқ феълли одамлармиз, кўп кузатиладиган ҳолат бу: саломатлигимиизда озгина ноҳушроқ ўзгариш сезсан, дарров шифокорга югурамиз, «103»га кўнғироқ қиласиз. Ва табиийки, бошимизга бирор ташвиш, мушкуллик тушса, бирданига «102» рақамини терамиз ё ички ишлар органи вакилини сўроқлаймиз. Уларнинг аксарияти ҳеч оғринмасдан, кунми-тунми, барибир сизу бизнинг ёнимизга етиб

 ЁШЛАР ОЙЛИГИ

ХАЙРЛИ ТАШАББУС



ИИВ Қоровул қўшинлари бир гурӯх ҳарбий хизматчилари Ёшлар ойлиги доирасида жамоатчилик вакиллари билан ҳамкорликда Андижон шаҳридаги Онкология ва гематология шифохонасида даволанаётган бемор болалар ҳолидан хабар олишиди.

Ҳарбий хизматчилар ташриф давомида 40 нафарга яқин болажон-

лар билан самимий сұхбат қуриб, уларга китоблар, ўйинчоқлар ва турли эсдалик совғаларини тұхфа қилишди. Шифохонада бемор болаларга ўз мөхрини бераётган тибиёт ходимларига самимий миннатдорлик билдириб, уларнинг фидокорона мөхнатини эътироф этишиди.

**ИИВ Қоровул қўшинлари
қўмандонлиги ахборот гурухи.**



ҲАР БИРИМИЗ АСЛИ ПОСТДАМИЗ

келади ва ҳаётини хавф остига кўйиб бўлса-да, ҳар қандай вазиятда ёрдам беради. Бу соҳа вакиллари ҳамиша огоҳ ва ҳушёр бўлгани учун ҳам сизу биз яшаетган озод ва обод юртда, маҳалла-кўй, оила-хонадонда тинчлик ҳукм сурмоқда.

Шу маънода «Postda – На посту» газетасининг кўп йиллик бир оддий мухлиси сифатида унинг саҳифаларида ички ишлар органлари тизими ходимлари фаолиятига оид чоп этилаётган турли-туман мавзулардаги чиқишлиарни қизиқиб кузатаман. Ёритилаётган ҳаётий воқеа-ходисалар, янгилик ва хабарлар мазмун-моҳиятини таҳлил қиласан ва асосий чиқаражак хulosam шундай бўлади: газета ҳамиша юртдошларимизни огоҳликка чорловчи маънавият постида мустаҳкам ва ҳушёр!

Ижод йўлларингиз доимо ёруғ бўлсин, қадрдан ҳамкасларим!



**Норқобил ЖАЛИЛ,
«XXI asr» газетаси
бош мұхаррири,
Ўзбекистонда хизмат
кўрсатган журналист.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda_uz

 Урок духовности и просвещения

НАРКОМАНИЯ – ЖИЗНЬ БЕЗ БУДУЩЕГО


Проблема незаконного оборота наркотиков является одной из наиболее серьезных угроз для международного сообщества. Она не только подрывает здоровье и благополучие миллионов людей, но и дестабилизирует целые регионы, финансирует организованную преступность и терроризм, тормозит экономическое развитие.

Последствия распространения наркотиков ощущаются на всех уровнях. На индивидуальном уровне это приводит к разрушению семей, потере трудоспособности и увеличению смертности от передозировок и сопутствующих заболеваний, таких как ВИЧ/СПИД и гепатит. На социальном уровне наблюдается рост преступности, коррупции. Экономики стран страдают от снижения производительности труда, увеличения расходов на здравоохранение и правоохранительную деятельность, а также от отмывания денег, полученных от незаконного оборота.

Мировое сообщество предпринимает значительные усилия для борьбы с данной проблемой. Это включает в себя укрепление международного сотрудничества в борьбе с наркотрафиком, ликвидацию сетей наркоторговцев, контроль за прекурсорами (химическими веществами, используемыми для производства наркотиков). Однако, несмотря на принимаемые меры, незаконный оборот наркотиков продолжает адаптироваться, методы распространения зелья становятся все более изощренными, в том числе с использованием современных технологий и даркнета.

Эффективная борьба с рассматриваемой угрозой требует дальнейшего усиления взаимодействия между странами. Только

наркотическим веществом в настоящее время является каннабис (почти 150 млн потребителей), за которым следуют стимуляторы амфетаминового ряда (приблизительно 30 млн – главным образом метамфетамин и амфетамин, а 8 млн – экстази). Немногим более 13 млн человек употребляют кокаин и 15 млн – опиаты (героин, морфин, опий, синтетические опиаты), в том числе приблизи-



тельно 10 млн человек употребляют героин.

Наркомания представляет собой комплекс медицинских, социальных, правовых, криминологических и криминалистических проблем. Очевидна ее связь с преступностью. В связи с этим противодействие незаконному обороту наркотиков – важнейшее направление деятельности органов внутренних дел.

меры, направленные на пропаганду среди населения здорового образа жизни; выявление причин незаконного проникновения наркотиков на территорию страны и усиление мер по их ликвидации; повышение эффективности оперативно-практических мер в области борьбы с наркопреступлениями. В соответствии с документом осуществляются меры по предотвращению финансовых операций, связанных с незаконным оборотом наркотиков, по борьбе с распространением наркотиков через интернет и др.

Следует признать, что в последние годы появились новые виды синтетических наркотических средств и сильнодействующих веществ. Они распространяются среди населения, преимущественно среди молодежи. В связи с этим для достижения целей раннего предупреждения незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ в республике осуществляются меры по глубокому анализу, выявлению и прогнозированию основных факторов и тенденций ситуации с наркотиками в разрезе регионов.

В Узбекистане законодательным основанием регулирования общественных отношений в сфере оборота наркотических средств, психотропных веществ и прекурсоров, противодействия их незаконному обороту является Закон «О наркотических средствах и психотропных веществах». В нем нашли отражение основные

положения таких международно-правовых норм, как «Единая конвенция ООН о наркотических средствах» от 1961 г., Конвенция ООН от 1971 г. «О психотропных веществах», Конвенция ООН «О борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ», принятая в 1988 г.

Мировое сообщество осознает масштаб проблемы, в связи с чем согласно решению Генеральной Ассамблеи ООН 26 июня отмечается как Международный день борьбы со злоупотреблением наркотическими средствами и их незаконным оборотом.

По экспертным оценкам, один наркоман вовлекает более десяти человек в употребление наркотиков. При этом примерно две трети наркоманов становятся преступниками, а одна треть умирает в молодом возрасте.

В Узбекистане сформирована государственная система борьбы с незаконным оборотом наркотических средств. Республика придает огромное значение выполнению своих обязательств перед международным сообществом. Для достижения целей, изложенных в Национальной стратегии по борьбе с наркоманией и наркопреступностью в Республике Узбекистан на 2024–2028 годы, перед государственными структурами, включая органы внутренних дел, поставлены задачи по приоритетной реализации мер профилактики наркомании и поднятию на качественно новый уровень работы по антинаркотической пропаганде с привлечением широкой общественности. Реализация определенных в Национальной стратегии задач позволит не только снизить уровень наркомании и наркопреступности, но и сформировать сильный иммунитет общества к данной угрозе для создания здорового и безопасного будущего.

Алимжан МАТЧАНОВ,
доктор юридических наук,
профессор,
полковник.



совместными усилиями можно надеяться на снижение влияния разрушительной силы на будущее человечества.

По данным Всемирного доклада о наркотиках, в мире порядка 300 миллионов человек употребляют наркотики. Прогноз на основе демографических данных предполагает, что к 2030 году число людей, употребляющих наркотики, может увеличиться на 11%. Наиболее широко употребляемым

Указом Президента Узбекистана «О стратегических мерах по устранению негативного влияния на здоровье населения и генофонд нации наркотических средств и психотропных веществ посредством пресечения их незаконного оборота в Республике Узбекистан» от 6 мая 2024 года утверждена Национальная стратегия по борьбе с наркоманией и наркопреступностью на 2024–2028 годы. Она включает



DUNYO KELAR SAYYOH BO'LIB...

Farg'onaning turizm salohiyati kundan-kunga yuksalmoqda

Shuni alohida e'tirof etish zarurki, keyingi 4–5 yil ichida turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Chunki yangi ish o'rirlarini yaratish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda ichki va tashqi sayyohlikning o'rni tobora kengayib bormoqda. Buni o'tgan yilda diyorimizga 9 million nafarga yaqin xorijiy sayyoh kelgani, ularga 2,7 milliard dollarlik xizmat ko'rsatilgani, minglab ish o'rirlari vujudga kelganida ham ko'rish mumkin.



O'tgan yili Farg'ona viloyatiga 3,5 million nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, ularning qariyb 500 ming nafari xorijilik mehmonlar ekanligi e'tiborga sazovordir. Viloyatda 20 dan ortiq xalqaro festivallar, anjuman va ko'rgazmalar muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham sayyohlik salohiyatining yuksalib borayotganidan nishonadir.

Qo'qon, Marg'ilon shaharlari va Rishton tumani sayyohlar eng ko'p keladigan hududlar sanaladi. Xususan, dunyoda yagona «Latif shahar» maqomiga ega Qo'qonda so'nggi yillarda turizm va xizmat ko'rsatish sohalari yanada rivojlandi. Bundan tashqari, Beshariq tumanida tibbiyot turizmi, Quva hamda Farg'ona tumanlarida ekoturizm ommalashib boryapti.

Ta'kidlash joizki, Qo'qon bir paytning o'zida ham sharqona latofat, ham zamonaviy taraqqiyot mezonlarini uyg'unlashtirgan shahar. U o'zining betakror tabiatni, ko'rgi-tarovati, tarixiy-madaniy yodgorliklari, turizm va tadbirkorlik salohiyati kabi o'ziga xos jihatlari tufayli dunyoning megapolis shaharlari bilan bermalol bo'ylisha oladi.

Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi qurib bitkazilganiga 150 yildan ortiq vaqt bo'ldi. So'nggi Qo'qon xoni Xudoyorxon tomonidan qurilgan mazkur tarixiy yodgorlik dastlab 3 ta qism va 114 xonadan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda faqatgina so'nggi qismi va 19 ta xona saqlanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, davlat muhofazasiga olingan mazkur me'moriy yodgorlik sayyohlarning katta qiziqishiga sabab bo'imodqa.

Ayni kunda O'rda atrofida sayr qilsangiz, dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurgan sayyohlarga duch kelasiz. Ular o'z tillarida janнатмонанд O'zbekiston haqidagi

taassurotlarini to'lqinlanib gapirib berishadi.

– Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent shaharlarini borib ko'rdim. Endi Qo'qonga keldim, – deydi argentinalik sayyoh Roksana Lobarnara. – Taassurotlarim bir olam. Yurtingizning tabiatni juda go'zal, iqlimi, ob-havosi qulay ekan. Ayniqsa, odamlarning samimiyligi, xushfe'lligi e'tiborga molik. O'zbek taomlari, milliy kiyimlari, urf-odatlari va an'analari boshqa hech qaysi yurtda uchramaydi. Yurtingizdagi tinchlik, xotirjamlik, do'stlik va birodarlik odamlarning baxtiyorligiga asosiy sabab, deb o'yayman,

– O'zbekistonga ikkinchi bor kelishim. Avvalgi safar faqat Samarqand va Buxoro shaharlarini tomosha qilgandim, xolos, – deydi Buyuk Britaniyadan kelgan sayyoh Janik Fayn. – Bir haftadan buyon O'zbekistondaman. Xivaga borib, qadimiy shaharda saqlanib qolgan me'moriy obidalarni tomosha qildim.

Ularning qurilish va bezak ishlari juda mukammal. Endi Qo'qon va Marg'ilon haqida ko'proq bilgim kelyapti. Bu yurting tarixi, bugungi kuni, tabiatni, urf-odatlari va milliy o'ziga xosligi haqida hikoya qiluvchi kitoblar, foto-bomlar sotib olmoqchiman.

Turizmnинг rivojlanishida nafaqat tarixiy me'moriy obidalar, balki o'sha yerdagи tinchlik va barqarorlik, xavfsizlikning ishonchli ta'minlanishi ham juda muhim o'rinn tutadi. Chunki har qanday sayyoh uchun o'zining xavfsizligi birinchi o'rinda turadi.

– Farg'ona viloyatiga kelayotgan sayyoh birinchi bo'lib, albatta, Qo'qondagi tarixiy obidalar va

diqqatga sazovor joylarni tomosha qilishni istaydi, – deydi viloyat IIB JXX JTSB 2-mintaqaviy hudud PPX otryadi komandiri o'rinosari, mayor Samadjon Mirhayitov. – Ayniqsa, O'rda majmuasi, Norbo'tabiy hamda Kamol qozi madrasalari, Jome masjidi, Dahmai shohon ansambl va boshqa qadamjolarga kelayotgan ziyoratchilar oqimi juda ko'p. Aynan shu hududlarda avtopatrol va piyoda patrullik yo'naliishlarimiz xizmat olib boradi. Yo'naliishlarga xorijiy tillarni yaxshi biladigan, muomala madaniyati yuqori xodimlarni qo'yanamiz. Xodimlarimiz sayyohlar xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, ular bilan samimiyl muloqotda ham bo'lismi. Sayyohlar O'zbekistonda xavfsiz va xotirjam sayohat qilayotganini ta'kidlashganida, albatta, g'ururlanamiz. Chunki bu bizning xizmatimiz mevasidir.

Mohir kulollar yurti sanalmish Rishton tumanida ham turizm iqtisodiyotning asosiy drayverlari-



dan biri sanaladi. Sohaga qaralayotgan e'tibor natijasida keyingi 4–5 yil ichida 1 ta xalqaro kulolchilik markazi, 2 ta hunarmandchilik markazi barpo etildi. 50 dan ortiq kulolchilik uy-muzeylari va uy-mehmonxonalar tashkil qilindi. Natijada ushbu markazlarga kelayotgan xorijiy sayyohlar soni yiliga 50 ming nafardan, mahalliy sayyohlar esa 150 ming nafardan ortdi.

Hozirda xalqaro kulolchilik markazi hamda Burhoniddin Ar-Roshidony nomidagi «Sohibi hidoya» ziyoratgohiga olib kiruvchi ko'chadagi eski bino va inshootlar o'rniда ko'p qavatli «Dahbed Al-hidoya» turarjoy majmuasini qurish bo'yicha loyihamar tayyorlanmoqda. «Sohibi hidoya» ziyoratgohini rekonstruksiya va restavratsiya qilish, unga tutash hududlarda savdo va servis

ko'rsatish shoxobchalarini barpo etish, hududni turizm markaziga aylantirish borasida ham rejalar ishlab chiqilyapti.

Yaqinda tumandagi Mama-dali Topvoldiyev nomli mahallaga viloyatda birinchi bo'lib «turizm mahallasi» maqomi berildi.

– Mahallamizdagи 850 ta oilada, 2,5 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Aholimiz azaldan sayyohlarni hurmat-e'tibor bilan kutib olishga, mehmono'stlik ko'rsatishga odatlanishgan, – deydi mahalla raisi Ravshan Matkarimov. – Hududimizda xalqaro kulolchilik markazi, «Xo'ja Rushnoy», «Sohibi Hidoya» ziyoratgohlari, Mamadali Topvoldiyev nomidagi muzey, «Koron plus» hunarmandchilik muzeyi kabi diqqatga sazovor joylar borligi ham bu maqomning berilishiga sabab bo'ldi.

– Hududning turizm salohiyati tobora yuksalib, sayyohlar oqimi ko'payganligi sababli yaqinda



5 ta mahalladan iborat mikrohudud tashkil qilindi va yangi huquq-tartibot maskani ish boshladidi, – deydi profilaktika bosh inspektori, mayor Ozodjon Haydarov. – Maskanimiga yangi xizmat mashinasi, motoskuterlar va kompyuter jamlanmali berildi. Natijada xizmat samaradorligimiz ortib, aholi bilan yanada yaqin ishlay boshladik. Sayyohlar ham hududimizga xotirjam kelib, bermalol sayohat qilib, iliq taassurot bilan qaytishmoqda. Joriy yilning o'tgan 5 oyida hududimizda jinoyatchilik va huquqbazarliklar salmog'i ham sezilarli darajada kamaydi. To'rtta mahalla «yashil» toifaga o'tdi.

**Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.**

Farg'ona viloyati.



OTA-ONADAN KEYIN ENG YAQIN DO'ST

O'shanda hayotimni o'zgartirib yuborgan voqeа sodir bo'ldi. Kechga yaqin o'g'lim IIV Akademiyasi kursantlari formasini kiyib qarshimda paydo bo'ldi. Qo'lida bir parcha qog'oz. Bu Sevdiyor Abdunazarovni kursantlikka qabul qilish to'risidagi buyruqdan nusxa edi. Men uchun dunyo charog'on bo'lib ketdi. Go'yo yulduzlar atrofimda parvona bo'layotgandek edi. Angladimki, har bir inson uchun farzandi kamolidan ko'ra ulug' baxt yo'q ekan. Shu oniy lahzalarda uning ta'lim-tarbiyasi yo'lida chekkan mashaqqatlarimiz ko'z o'ngimdan bir-bir o'tdi.

Sevdiyor juda yoshligidan zehnli ekanini namoyish qildi. U bog'cha-daligidayloq she'rлarni tez yodlab olar, ayniqsa, ertaklarni aniq eslab qoldi. O'sha paytlarda Sirdaryo IESda ishlар, unga kam vaqt ajratardim. Keyinchalik ishim yana ta'-

lim tizimiga qaytgach, tobora o'sib borayotgan farzandimning tarbiyasi, bilim olishi hayotimning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. U bilan ishdan qaytgach shug'ullana boshladim. Ulг'aygani sari tushunchasi kengayib, intilishlari kuchaydi. O's-



mirlik davrida uni kitobga oshno qilib qo'ydim. O'sha paytda shahar Axborot-kutubxona markaziga birga borib kitob tanlashga yordam bergenlarim esimda bor. U badiiy kitoblarni g'o-yat sevardi. Ayniqsa, jahon adabiyoti uni qattiq qiziqtirib qo'ydi. Men esa unga ensiklopedik, ilmiy kitoblarni ham tavsiya qila boshladim. Shu tariqa o'g'lim axborot texnologiyalari, nanoolam, fizika, biologiyaga oid bilim va dunyoqarashini kengaytira boshladi.

Yillar o'tgan sari unda ichki ishlар organi xodimi bo'lishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Tushundimki, u hayot yo'liga oid tanlovni qilib bo'lgan. Shu tariqa huquq, tarix fanlarini churq o'rganishga kirishib ketdi. Repetitorga qatnay boshladi. Lekin aslo kitobxonlikni tashlab qo'ymadidi. IIV Akademiyasidagi kursantlik davrida ham uning mutoalaga bo'lgan ishtiyoqi aslo so'nmadidi.

Mana, hozir Guliston shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi vazifasida ishlaydi. Ikki yillardirki, viloyatdagi hamkasblari orasida «Eng yaxshi kitobxon xodim» deb topilmoqda. E'tiborli jihat, uning rahbarlari tez-tez qo'ng'iroy qilib, mana shunday farzandni tarbiyalab berganim uchun mena minnatdorlik bildiri-shadi. Men esa ularga o'g'limning ma'naviyati, axloqi, insoniyl fazilatlari aynan kitobxonlik orqali shakllanganini ta'kidlayman. Va har doim yosh shogirdlarimga kitob inson uchun ota-onadan keyin eng yaqin do'st, ustoz ekanini ta'kidlab kelaman. Zotan, bunga o'z farzandim kamoli misolida amin bo'lganman.

**Oyzoda EGAMBERDIYEVA,
Shirin shahridagi 2-umumta'lum
maktabi direktori o'rindbosari.**



YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

INTILISHI MAQSADIGA TUTASH

– Oldimizga qo'ygan maqsadlariga erishish o'z qo'limizda, shu bois harakatdan to'xtamasligimiz zarur, – deydi IIV Akademiyasi 2-kurs kursanti Sabrina Yo'idosheva. – Harakat esa hamisha mehnat deganidir.

Tabiatan ochiqko'ngil, to'g'riso'z, o'ziga nisbatan niyoyatda talabchan lavhamiz qahramoni o'zi ta'kidlagan aqidalarga amal qilib, ularni maqsadlari yo'lida «Yo'l xarita»siga aylan-tirgan. Agar shunday bo'lmaganda Aziz Temirov oila qo'rg'onida avaylab ulg'aytirayotgan qizidagi ichki ishlар organlaridek mas'uliyatl sohaga qiziqishni qo'llab-quvvatlamagan bo'lardi.

– Sabrina juda shijoatl qiz, – deydi Aziz Temirov. – Maktabda a'lo baholarga o'qidi. Keyin xodima bo'lish niyatida IIV Qashqadaryo akademik litseyiga o'qishga kirdi. Ochig'i, ichki ishlар organlarida xizmat qilish oson emasligini yaxshi bilaman. Biroq farzandimdag intilishni ko'rib, onasi ikkimiz unga xayriyohlik bildirdik. Bugun u IIV Akademiyasida a'lo baholarga o'qiyotganidan xursandman. Kelgisida o'z sohasining yetuk mutaxassis bo'lishiga ishonaman.

Ko'kka bo'y cho'zgan har bir nihol quyosh taftidan kuch olganidek, katta maqsadlar bilan istiqbolga yuzlangan yoshlар uchun ota-onasining maslagi, ishonchi niyoyatda muhim. Zuk-



ko, tirishqoq Sabrinaning qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham ana shu ishonch mevasi, aslida. Xususan, u ta'lim dargohining namunalni kursantlaridan biri sifatida «Akademiya a'lochisi» ko'krak nishoni sohibasi. Rus tili bo'yicha fan olimpiadasining respublika bosqichi ishtirokchisi, o'q otish bo'yicha respublika miqyosidagi musobaqalar sovrindori, sport ustaligiga nom-

zod. Shuningdek, ingliz tilidan B2, rus tilidan C1 til bilish sertifikatlarini qo'lga kiritgan.

– Sabrina Yo'idosheva o'quv ja-rayonlarida psixologiya yo'nalishiga oid bilimlarni to'liq o'zlashtirishga harakat qiladi, – deydi Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrasi katta o'qituvchisi, mayor Ruslan Koziyev. – Bunda uning xorijiy tillarni mukammal biliishi juda asqatadi. Va yo'nalishga oid ma'lumotlarni tahlil qilib o'rganadi. Bugungi taraqqiyot davrida har bir yosh, bo'lajak mutaxassis uchun bu zarur, deb o'layman.

Sport salomatlik garovi ekanligini yaxshi bilgan lavhamiz qahramoni su-zish, yugurish, basketbol sport turlari bilan ham muntazam shug'ullanadi. Detektiv asarlarni o'zgacha zavq bilan o'qiydi. Huquqiy mavzudagi ada-biyotlar mutolaasi bilan doim kasbiy ko'nikmalarini boyitib boradi.

Jamiyatda yangilanish, rivojlanish, shu bilan bir qatorda, har bir tizimning ertasi, zamonaliviy bilimlarni o'zlashtirgan, bilim ufqi keng, zakiy yosh avlod qo'lida ekanligini yaxshi bilamiz. Sabrina Yo'idosheva ham yurtimizning intilishi maqsadlariga tutash, istiqboli porloq yoshlari safidadir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.**

■ г. Ташкент

ЗДЕСЬ ПОРЯДОК ВСТРЕЧАЕТСЯ С ЗАБОТОЙ

В каждой махалле есть свой центр, где переплетаются нити повседневной жизни, решаются текущие проблемы и формируется будущее. Для махалли Хушнуд таким местом, без преувеличения, стало здание МСГ, где слаженно работает команда единомышленников.



К старшему инспектору по вопросам женщин ОВД № 4 УКД ОВД Янгихётского района подполковнику Рушане Бинали обращаются жительницы, в чьих семьях неспокойно, кто ищет поддержки и совета.

Капитан А. Нишаналиев, инспектор профилактики, ответственен за правопорядок. Во многом благодаря ему каждый житель чувствует себя защищенным.

Неподалеку, с доброжелательной улыбкой, посетителей встречает Д. Эргашева, представитель женского совета. Она – организатор множества полезных инициа-



тив, связующее звено между жителями и теми, кто может оказать помощь. И, конечно, Т. Пардаев, помощник хокима, чьи задачи включают обеспечение надежной связи махалли с районными службами и оперативное решение административных вопросов.

Вместе они способны справиться с любой задачей.

Обстановка в МСГ «Хушнуд» рабочая. Жители приходят сюда со своими радостями и заботами, с просьбами и предложениями, уверенные, что будут выслушаны и найдут понимание. Ежедневно

в МСГ решаются самые разные вопросы. Это непрерывный процесс, день за днем укрепляющий атмосферу добрососедства, взаимопонимания и уважения.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.

★ Границы мастерства

ЖИЗНЕННОЕ КРЕДО МАЙОРА

Мансур Абдурахманов родом из кишлака Хужамушкент Янгиабадского района. Окончив школу, поступил на биологический факультет Гулистанского государственного университета. Он был вторым из пяти детей в семье и с юных лет являлся примером для братьев и сестер. С 2010 по 2012 год работал преподавателем в Гулистанском педагогическом колледже.

Служба в органах внутренних дел началась для него в 2012 году с должности рядового патрульно-постовой службы Управления охраны общественного порядка.

В 2016 году он был переведен на должность инспектора профилактики в махаллю Бахор города Гулистана. Работа на новом участке оказалась непростой. Махалля располагалась рядом с трассой Гулистан – Ташкент, что требовало усиленного контроля за оперативной обстановкой. Уже во второй год его работы уровень правопорядка в махалле был значительно укреплен, сократилось число безработных и лиц, злоупотребляющих спиртным, активно пропагандировался здоровый образ жизни.

В 2019 году М. Абдурахманов был переведен в Хавастский район, где работал инспектором профилактики в нескольких махаллях, а позднее – назначен начальником отдела профилактики правонарушений Хавастского РОВД. Объем задач значительно возрос: необходимо было систе-



матизировать и анализировать информацию, координировать работу на местах. Он лично выезжал в махалли с повышенным уровнем преступности, общался с жителями, чтобы на месте выявлять проблемы и находить эффективные решения.

В 2025 году герой очерка был назначен командиром 1-го отряда батальона ППС УВД Сырдарьинской области. И в новой должности он проявил себя как инициативный и ответственный руководитель.

Майор Абдурахманов активно работает с молодыми сотрудниками, передавая им свой опыт и знания.

– Наш наставник требователен на службе, но заботлив и внимателен в бытовых вопросах, – рассказывает капитан Хакимжон Тошкузиев. – Его советы помогают нам в профессиональной деятельности.

Мансур Абдурахманов – примерный семьянин. Вместе с супругой воспитывает двух сыновей и дочь. В махалле Зарборд Гулистанского района, во дворе своего дома, он разбил сад. Каждое дерево, выращенное с заботой, сегодня приносит щедрые плоды.

**Абдурахмон
МУСТАФАКУЛОВ,
соб. корр.
Сырдарьинская область.**





Истеъмолда эҳтиёт бўлган маъкул



Ёзинг иссиқ кунларида кўпгина хонадонларда муздеккина тарвуз дастурхонни безаб турди. 90 фоиз сувдан ташкил топган ушбу полиз маҳсулоти умумий мустаҳкамловчи таъсирга эга бўлиб, овқат ҳазм қилиш ва моддалар алмашинуви жараёнларига ижобий таъсир кўрсатади. С, РР, В1, В2 витаминлари, фолий кислотаси, каротин, темир, магний ва калийга бой бўлган тарвуз организмдан ортиқча холестерин ва заҳарли моддаларнинг чиқиб кетишига хизмат қилиб, ошқозон ва ичаклар фаолиятини яхшилайди, чанқоқни қондиради, хотирани мустаҳкамлайди. Шунингдек, ични тозалайди, юрак-томир тизими ва буйрак касалликлари, жумладан, организмда тошлар бўлганида, оёқ-қўллар шишиши кузатилганда самарали ёрдам беради.

Бирок...

Тарвуз организмга фойда билан бирга зарар ҳам келтиришини унутмаслик лозим. Жазирама ёз кунлари аҳоли ўртасида яхши етилмаган, дорига тўйинган ёки нотўғри сақланган тарвуз истеъмолидан заҳарланиш ҳолатлари кўп учрайди.

Тарвуз етарли даражада пишмаган ёки уни етиширишда кимёвий ўғитлардан кўп фойдаланилган бўлса, саломатлик учун жиддий хавф туғдириши мумкин. Бундай маҳсулот меъёридан ортиқ истеъмол қилинганда, баъзан кўнгил айниши, қайт қилиш, қорин дам бўлиши, иситма кўтарилиши, ҳолсизлик, ич бузилиши, қоринда оғриқ ва бошқа аломатлар кузатилади. Шу боис бунинг олдини олиш учун тарвуз танлаш ва истеъмол қилишда ўта эҳтиёткор бўлиш, юкоридаги ҳолатлар кузатилганда эса зудлик билан шифокорга мурожаат қилиш мақсадга мувофиқидir.

УКРЕПЛЯЕМ ИММУНИТЕТ

Летний стол – это кладезь витаминов и минералов. Фрукты и овощи в этот сезон не только вкусны, но и особенно полезны.



Абрикосы и чешня содержат бета-каротин и железо, укрепляют иммунитет и улучшают кроветворение.

Огурцы и помидоры – классика летних салатов. Они освежают и снабжают организм антиоксидантами.



Зелень – петрушка, укроп, базилик – источник витаминов группы В и С. Добавляйте ее в любые блюда.

Приготовьте витаминный салат: нарежьте помидоры, огурцы, мяту, сбрызните лимонным соком – и освежающий перекус готов!

СОҒЛОМ БЎЛИШНИ ИСТАСАНГИЗ сузиш машғулотини канда қилманг

Инсон саломатлигини асраш ва мустаҳкамлаш, қолаверса, узоқ умр кўришнинг гарови соғлом турмуш тарзи эканини барчамиз яхши биламиз. Соғлом турмуш тарзида ҳаёт кечиришнинг талабларидан бири сузиш машғулоти билан танани чиниқтириш ҳисобланади.



Хўш, сузишнинг фойдали хусусиятлари ҳақида нималарни биласиз?

* Сузиш умуртқа ва таянч-харакат аппарати касалликларининг олдини олиш учун энг қулай усулдир. Умуртқа атрофидаги майда мушаклар бўшашиб, умуртқа устуни зўриқмайди. Бунинг натижасида тўғри қомат шаклланади.

* Юрак-кон томир тизими иши учун айни муддао бўлган ва уни асраб-авайлловчи машғулот.

* Яхши сузиш учун чуқур ва тўғри нафас олиш мухим. Натижада нафас

мушаклари ҳам ишга тушади, ўпка фаолияти яхшиланади, кўкрак қафаси кенгаяди.

* Тана ҳароратининг сув ҳароратига мос ўзгариши организмни чиниқтиради, иммунитетни оширади, натижада касалликларнинг олди олинади.

* Сузиш энергия талаб этувчи машғулот бўлиб, тана вазнини меъёрда бўлишини таъминловчи энг самарали восита.

* Сузиш натижасида қондаги қанд микдори нормаллашади ва юқори қон босими пасаяди.

* Мунтазам сузиш машғулотлари уйкусизлик, депрессия ва стрессни енгишга ёрдам беради.

* Олимларнинг таъкидлашича, сузиш ҳомиладор аёллар, деманс ва склероз билан кўп касалланган одамларнинг аҳволини яхшилайди ва ҳатто кўплаб жароҳатлар ёки туғма касалликлар учун ҳам машқ сифатида мос келади.

* Шунингдек, сув ҳаводан кўра кўпроқ қаршилик кўрсатади, бу эса одамларга минимал даражада шикастланиш ҳавфи билан кучли жисмоний машқлар қилишга имкон беради.

* Энг мухими шундаки, сузиш ҳар қандай ёшдаги одамлар шуғулланса бўладиган осон ва фойдали спорт машғулотидир.

**Дилбар АСОМОВА,
ИИВ Марказий
поликлиники бўлим
бошлиғи, подполковник.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ӯз мухбиримиз.**

УХОД ЗА КОЖЕЙ И ВОЛОСАМИ

Солнце, жара, пыль и пот – все это негативно влияет на кожу и волосы. Но если следовать рекомендациям специалистов, можно сохранить здоровье и свежий вид даже в пик сезона.

Используйте солнцезащитный крем. Наносите его за 20 минут до выхода на улицу. Особенно важно защищать лицо, шею и руки.

После загара ухаживайте за кожей. Используйте увлажняющие средства на основе алоэ, пантенола или гиалуроновой кислоты.

Увлажнение – ключ к здоровой коже. В жару пейте больше воды.

Защищайте волосы. Носите головные уборы, используйте спреи с УФ-защитой. Раз в неделю делайте питательные маски – например, на основе кокосового масла.

Простой рецепт: смешайте 1 столовую ложку меда, 1 желток и 2 ложки йогурта. Нанесите на волосы на 30 минут, затем смойте. Волосы будут мягкими и блестящими.

ИНФЕКЦИИ ЛЕТОМ

Жаркое время года сопровождается всплеском различных инфекционных заболеваний. Тепло создает идеальные условия для размножения микробов.


Кишечные инфекции – самые распространенные. Они возникают при употреблении некачественной воды или плохо вымытых продуктов. Всегда мойте руки перед едой, пейте только кипяченую или бутилированную воду.

Грибковые инфекции поражают кожу стоп и ногти. Они легко передаются в бассейнах, на пляжах. Используйте индивидуальные тапочки и следите за гигиеной.

Кожные воспаления и укусы насекомых также активизируются летом. Защищайтесь от комаров с помощью репеллентов, не расчесывайте укусы и обрабатывайте их антисептиками.

Если у вас появилась температура, диарея, сыпь или сильный зуд – не занимайтесь самолечением.

Не забудьте проконсультироваться со специалистом!



VOLEYBOL

ENG KUCHLILAR FARG'ONADA

Avval xabar qilganimizdek, bir hafta davomida Farg'ona shahri yirik xalqaro musobaqaga mezbonlik qildi. Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasiga a'zo davlatlar ishtirokida erkaklar o'rtasida «Millatlar ligasi» Markaziy Osiyo championati ko'tarinkin ruhda, qizg'in va do'stona bahslarga boy tarzda o'tdi.

Xalqaro musobaqada O'zbekiston Respublikasi sportchilari bilan birga Hindiston, Turkmaniston, Pokiston, Qozog'iston, Eron, Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlardan jami 150 nafardan ziyod sportchilar, murabbiylar va mutaxassislar ishtirok etdi. Muhtasham «Samo» sport majmuasi 29-maydan 4-iyunga qadar voleybolga ishqiboz muxlislardan bilan gavjum bo'ldi.

Har bir bahs qizg'in va murosasiz kurashlar, do'stona ruh hamda ishqibozlarning olqishi ostida o'tganligini alohida ta'kidlash zarur. Eron va Hindiston voleybolchilari har jihatdan kuchli va epchil ekanligi bahslarda yaqqol ko'zga tashlanib turdi. Finalda ham ushbu jamoalar, kubok uchun qizg'in kurash olib borishdi. Yakunida eng mohir voleybolchilardan iborat Eron terma jamoasining qo'li baland kelib, championlikni qo'lga kiritdi. Hindistonlik voleybolchilar ikkinchi o'rinni egallab, kumush medallarga sazovor bo'lishdi. Pokiston terma jamoasi esa kuchli uchlikka kirib, bronza medallari shodasi bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida qatnashgan Ichki ishlar vaziri o'rinnbosari, general-major Bekmurod Abdullayev so'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda sportni ommalashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilayotganini, boshqa jamoaviy sport turlari kabi, voleybol bilan ham professional shug'ullanish uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, uni rivojlantirish masalasiga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgorganini alohida ta'kidladi. Ushbu sport turini keng ommalashtirish va qo'llab-quvvatlash masalasi esa bevosita Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilganini qayd etdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Ta'kidlash joizki, 2024-yil 19-iyulda qabul qilingan Prezidentimizning «Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar sifatini yuqori bosqichga olib chiqdi. Unga asosan, voleybol bo'yicha respublikamizning xalqaro maydondagi o'rnni yaxshilash, yoshlar orasida ommalashtirish, an'anaviy voleybol bilan bir qatorda, sohil va para voleybolni ham keng rivojlantirish choralarini ko'rilmoxda.

Maryam XESSABEY,
Eronlik xalqaro sport mutaxassisi:

– O'zbekiston musobaqaga katta tayyorgarlik ko'rganiga guvoh bo'ldik. Mazkur xalqaro turnir juda nufuzli musobaqa sanaladi va undagi muvaffaqiyat jamoalarning xalqaro reytingiga ta'sir qiladi. Shu bois kurashlar ham qizg'in va murosasiz ruhda kechdi. Biz o'zbek xalqining mehmondo'stligi va sportga bo'lgan ishtiyoqdan juda xursand bo'ldik.

Viktor KOZIK,
Qozog'iston terma jamoasi bosh murabbiyi:

– Men 1986-yilda Farg'onda birinchi marotaba bo'lgan edim. Oradan shuncha vaqt o'tib, nufuzli musobaqa sababli, yana ushbu mehmondo'st shaharga keldim. Bizni juda do'stona va ko'tarinkin ruhda kutib olishdi.

Musobaqa jarayonida, albatta, o'z mahoratimizni ko'rsatishga harakat qildik. Bu yerda dunyoning eng nomdor jamoalari o'zarob chuch sinashdi. O'ylayınmanki, bu kabi xalqaro turnirlar xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlilik hamda birodarlik rishtalarini mustahkamlaydi.



**ICHKI ISHLAR
VAZIRI KUBOGI**

MAHORATLILAR G'OLIB BO'LDI

«Besh tashabbus olimpiyadasi» doirasida Ichki ishlar vazirligi tashabbusi bilan 16–30 yoshli o'g'il-qizlar o'rtasida voleybol bo'yicha «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqlari tashkil etildi.

Bu sport tadbirlari Buxoro viloyatida ham yuqori darajada uyuşdırıldı va yoshlar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Aprel oyidan boshlab viloyatning 544 ta mahallasida 51 ming 200 nafardan ziyod yosh sportsevarlar saralash bosqichlarida qatnashib, o'z mahoratlarini namoyon etishdi.

Viloyat bosqichida shahar va tuman bosqichlarida g'olib chiqqan jamoalar o'zaro bellashib, g'oliblar aniqlandi. Jumladan, 16–21 yosh toifasidagi qiz bolalar jamoalari o'rtasida birinchi o'rinni Buxoro shahridagi «Yoshlik» mahallasi jamoasi egallagan bo'lsa, o'g'il bolalar o'rtasidagi bellashuvda Peshku tumani «Shavgon» mahallasi jamoasi qo'lga kiritdi. Shuningdek, musobaqanining 22–30 yosh toifasida qiz bolalar o'rtasida Olot tumanining «Bo'ribek» mahallasi va o'g'il bolalar o'rtasida Peshku tumani «Shavgon» mahallasi jamoalar g'olib bo'lishdi. Faxrli birinchi o'rinni egallagan jamoalar respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

O'z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.





ILLAT IZLAGANGA – ILLATDIR DUNYO

Inson hayotida beba ho ne'matlardan biri tinchlik-osoyshtalikdir. Har kuni erta tongda uyg'onib, osmonda qushlar charx uring yurganini ko'rish, ularning sayrashidan, bolalarning shodon kulgisidan zavqlanish qanday yaxshi.


Lekin, afsuski, ba'zi odamlar shunday osoyishta hayotga shukur qilmay, doim norozilik kuyini chalishadi. Tevarak-atrofida kechayotgan ijobji o'zgarishlarni ko'rishmaydi. Xalqni rozi qilish, huquq-tartibotni ta'minlash yo'lida jon kuydirayotgan ichki ishlarni xodimlarining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash o'rniiga, faqat ularni yomonotliq qilish bilan mashg'ul bo'lishadi.

Aslini olganda, bunday kim-salardan xafa bo'lish kerak emas. Chunki noshukur odam hech qachon boshqalardan mamnun bo'lmaydi. Yo'llar ta'mirlansa, «Pul isrof bo'ldi» deb nolishadi. Xavfsizlik chorralari ko'rilsa, «Erkinligim cheklandi», deya ayyuhannos solishadi. Yangi qonun qabul qilinsa, «Bu menga yoqmaydi» deb ensa qotirishadi. Ular jamiyat manfaati, umumxalq osoyishtaligi, farzandlar kelajagi haqida o'ylamaydi, faqat o'z foydasini ko'zlashadi.

Ijtimoiy tarmoqlarni kuzatsangiz ham bunga guvoh bo'lasiz. Masalan, yaqinda yo'l-patrol xizmati inspektoriga nisbatan qilingan nomaqbul xatti-harakatlarni yoqlovchi, xodimni masxara qiluvchi video tarqatildi. Instagramm ijtimoiy tarmog'idagi ushbu videoga naq 10 ming kishi izoh qoldirgan. Afsuski, ularning ko'pchiligi buni ma'qullashgan.

Tinchlik o'z-o'zidan kelmaydi, osmondan tushmaydi. Uning ortida turli soha va killarining zahmatli mehnati, mashaqqatli xizmati turadi. Huquq-tartibot idoralari xodimlari, harbiy xizmatchilar, davlat rahbariyati – ularning hammasi xalq osoyishtaligi yo'lida tinmay harakat qiladi.

Ayrim shaxslar bunga ko'z yumib, davlatdan norozi bo'lib, hatto ig'vo, fisq-u fasod gaplar tarqatishgacha ham borishadi. Ular bir paytalar urush, qon to'kish, jang-u jadallar va ommaviy tartibsiz-



liklar tufayli xalq jabr chekkanini unutib qo'yganday. Bugun dunyodagi ko'plab mamlakatlarda notinchlik, urush tufayli har kuni yuzlab odamlar halok bo'lyapti. Biz esa, shukurki, tinch osmon ostida yashayapmiz.

Vaqti bemahal tobing qochoسا، «Tez tibbiy yordam» kelaptimi – shukur qil. Kechasi xotirjam ugrayapsanmi, oqshomlari xiyobonlarni bexavotir sayr etyapsanmi – buning zamirida ichki ishlarni xodimining bedorligi yotibdi. Bozor rastalari, do'kon peshtaxtalari mahsulotlarga to'lami – yana shukur qil. Yurting ozod va obodmi – dildan quvon.

El-u yurtni sevish bu shunchaki balandparvoz so'zlar aytish emas. Bu, avvalambor, xalqning tashvishidan tashvish chekib, shodligiga sherik bo'lishdir. Bu tinchlik-osoyshtalikni ta'minlayotgan matonatlari va jasoratli insonlarni qo'llab-quvvatlash, qadrlash, ularga hamkor bo'lish demakdir.

Tinchlik – hadya emas, yuqorida aytganimizdek, beba ho ne'matlardir. Uning qadrini bilgan odam yurtdagi barqarorlik uchun shukrona aytadi. Emin-erkin yurgani, ishlash imkoniyati bo'lgani, bolasi tinch ugrayotgani, ta'lim-tarbiya olayotgani uchun yurtimiz fuqarolari avvalo xalqni rozi

qilay deb fidoyilik bilan ishlayotgan davlat xizmatchilarini hurmat qilishi, qadrlashi lozim.

Bu gaplar kimningdir qalb ko'zini ochadi. Lekin hayotdan faqat kamchilik qidiradiganlarga kor qilmasligi aniq. Zero, shoir topib aytganiday:

*Illat izlaganga – illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga – g'urbatdir dunyo.
Kim neni izlasa,
topgay begumon,
Hikmat izlaganga – hikmatdir dunyo.*

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

Самаркандская область

В рамках декады «Актуальные 10 дней» в регионе прошли профилактические и оперативные мероприятия, направленные на противодействие коррупционным правонарушениям.

С начала текущего года зарегистрировано 57 коррупционных преступлений. Из них девять связаны с получением, 47 – с дачей взятки, один – с посредничеством. Преимущественно коррупционные деяния (49 случаев) зафиксированы в социальной сфере. Восемь преступлений отнесены к экономическим, единичные – касаются вопросов экологии, налогообложения и коммунального хозяйства.

Один из последних инцидентов произошел в Пахтакорском районе. В ходе оперативных мероприятий по месту жительства гражданина 1976 года рождения были обнаружены кастет и бита, а также кусты марихуаны, высаженные во дворе. Через несколько дней мужчина обратился к сотруднику органов внутрен-



них дел с просьбой не передавать материалы дела в следственные органы и предложил за это 20 миллионов сумов. После отказа сумма была увеличена до трех тысяч долларов США. В момент передачи взятки злоумышленник был задержан. Материалы дела переданы в суд.

Борьба с коррупцией осуществляется комплексно, охватывая укрепление правовых норм, эффективное осуществление соответствующих мер правоохранительными структурами. Она включает в себя также активное вовлечение гражданского общества. Совместная деятельность значительно повышает результативность борьбы. Только через такое партнерство можно достичь устойчивых результатов в искоренении этого зла.

**Фаррух
НУРМУРОДОВ,
лейтенант.**



К ОБЩЕСТВУ БЕЗ КОРРУПЦИИ

■ Навоийская область

Коррупция остается одной из наиболее острый глобальных проблем, тормозящих развитие государств. К числу ее проявлений относятся взяточничество, незаконное присвоение товаров и услуг, предназначенных для общественного пользования, кумовство, лоббирование интересов в целях извлечения личной выгоды. Эти деяния нарушают закон и подрывают доверие общества к институтам власти.



Согласно оценкам Всемирного банка, ежегодно в мире расточительно расходуется порядка одного триллиона долларов. Коррупция ведет к снижению национального богатства и уровня жизни граждан. Исследования показывают, что в странах, последовательно реализующих антикоррупционные

меры, государственные доходы в долгосрочной перспективе увеличиваются в четыре раза, темпы роста бизнеса – на 3 процента, а уровень детской смертности снижается на 75 процентов.

В нашей стране борьба с коррупцией ведется на системной основе. Приняты законодательные



акты, созданы специализированные органы, ведется последовательная реализация мер по предупреждению и пресечению коррупционных правонарушений, в том числе в системе правоохранительных органов.

В рамках реализации распоряжения Министерства внутренних дел в УВД области было организовано информационно-разъяснительное мероприятие, посвященное вопросам антикоррупционной политики. Основное внимание уделено значению добросовестного исполнения служебных обязанностей и соблюдению норм профессиональной этики.

В мероприятии приняли участие сотрудники органов внутренних дел области, юристы, представители общественного совета хокимията Навоийской области

– члены территориального совета по противодействию коррупции, а также журналисты.


В ходе встречи выступающие рассказали о реализуемых в системе внутренних дел антикоррупционных инициативах, а также о юридических и социальных последствиях коррупционных правонарушений. Особое внимание удалено роли общественного контроля как важного механизма повышения подотчетности органов власти.

В завершение участникам были разданы информационные буклеты, раскрывающие негативное влияние коррупции на жизнь граждан, развитие общества и государства в целом.

**Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.**

MA'NAVIYAT MARSHRUTLARI

ХО'JA NURIDDIN MADRASASI




XIX asr

Jizzax shahri markazida joylashgan Xo'ja Nuriddin madrasasi viloyatdagi eng ko'rkar arxitektura yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu bino 1850–1916-yillarda yashagan jizzaxlik ziyoli Nuriddin hoji Ma'rufxo'jayev tashabbusi va mablag'i evaziga bunyod etilgan. Madrasa 1898–1902-yillarda o'z davrining taniqli me'mori Ahmad Yunus Samarcandiyning loyihasi va boshchiligidagi quriladi.

Bu yerda Buxoro va Samarqand madrasalarida ta'lim olgan mudarrislar tasavvuf, fiqh hamda dunyoviy fanlar dan yoshlarga bilim berishadi. 23 ta hujraga ega ta'lim muassasasida qizlar ham o'qitilgan. Sobiq ittifoq davrida binodan turli maqsadlarda foydalаниldi. Chunonchi, o'tgan asrning 90-yillarda bu yerda qo'g'irchoq teatri jamoasi faoliyat yuritdi.

2017-yilda mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan Xo'ja Nuriddin madrasasi ta'mirdan chiqarildi.



XXI asr

va binoda Hamid Olimjon va Zulfiya muzeysi tashkil qilindi. Ayni vaqtida muzeyda ikki ulug' shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq 2 ming 453 ta fotosuratlar, hujjatlar, kitoblar, tasviriy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, turli buyum va ashyolar saqlanmoqda.

Muzey qarshisida Hamid Olimjon va Zulfiya nomi bilan ataluvchi bog' yuzaga keltirilgan. Hududda ularning haykallari ham bor. Yondosh manzillarda esa Sharof Rashidov istirohat bog'i, viloyat Axborot-resurs markazi,

viloyat bolalar kutubxonasi, 2 ta oliy o'quv yurti, Jizzaxning ramziga aylanigan «O'zbekiston» mehmonxonasi va yana bir qancha binolar mavjud.

Yana bir ma'lumot: viloyatda roppa-rosa 100 ta arxitektura yodgorligi ro'yxtagi olingan. Bular ichida ko'rklisi va o'tmish tarovatini o'zida to'la saqlab qolgani Xo'ja Nuriddin madrasasi, desak, adashmaymiz.

**Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.**
Jizzax viloyati.

BIR QO'SHIQ TARIXI

«BOS, BOS, QAMCHI BOS...»

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Hosila Rahimova repertuaridagi aksariyat qo'shiqlarda milliylik, asl o'zbekona an'analar, surxon do'mbirasi va chanqovuzning betakror sasi, sarhadsiz dala-dashtlarning tafti barq urib turadi. Xalq orasidagi baxshiyona navolarga zamonaviy ruh berib, ularga qayta jon bag'ishlagan qo'shiqlardan biri «Ko'pkari» ham qisqa fursat ichida o'z muxlislariga ega bo'ldi.

2016-yilda xonanda tomonidan taqdim etilgan bu qo'shiq uchun Ot sporti federatsiyasi san'atkorni maxsus Faxriy yorliq bilan taqdirlagani. Qo'shiq bugungi kunda O'zbekiston uloq-ko'pkari federatsiyasining madhiyasiga aylandi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, so'nggi yillarda mazkur qo'shiq jaranglamagan birorta ko'pkari saylini tasavvur etish qiyin. Qo'shiq naqoratidagi «Bos, bos, qamchi bos» satrlari uloqni olish uchun kurashayotgan chavandozlarning harakatlarini, qamchi bilan otni boshqarishni ifodalaydi.

Mazkur qo'shiq klipida xonandaning o'zi ot minib, suratga tushganini bilarmidizingiz? Intervyularining birida u shunday deydi:

— Bolaligimdan otlarga mehrim bo'lakcha, lekin birinchi marta necha yoshimda ot mingam esimda yo'q. Rahmatli otam qayerga borsa, otiga mindirib, meni ham o'zi bilan birga olib yurardi. «Ko'pkari» qo'shig'imning klipini suratga olayotganimizda ham, otni o'zim minganman, rejissyor dublyor taklif etamiz, deganida, rad etganman. Bilasizmi, ot bilan tillashmasangiz, uni sira minolmaysiz. Klipda ot

old oyoqlarini ko'taradigan sahna bor, ochig'i, uncha-muncha erkaklar bajara olmaydi, faqat chavandozlar qila oladi. Ana shu jarayonni ham 3 kun suratga olish jarayonida o'zim bajarganman.

San'atkor o'z qo'shiqlari orqali milliy an'analarimiz targ'iboti va rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlarida o'tkazilgan xalqaro ko'rik-tanlov va festivalarda ham aynan folklor yo'nalishdagi ijod namunalari bilan ishtirot etib, Gran-pri mukofoti hamda yuqori o'rnlarga sazovor bo'lgan. «Jahon sahnalarida o'zbek milliy san'atining asl ildizlari qanday ekanini namoyon eta olganimdan o'zimni hamisha baxtiyor his qilaman», deydi u faxr bilan.

Quyida «Ko'pkari» qo'shig'inining matnini e'tiboringizga havola etamiz

**Boychibor o'rtanib kishnadi,
So'lig'in chidona tishladi,
Qurga kirgin or uchun,
Ko'nglingda menday yor uchun!
Bu yolg'onchi dunyoda
O'tkinchi erur bari.
Hayot maydoni, bilsang,
Asli o'zi ko'pkari.**

**Bos, bos, qamchi bos,
Ot choptir yigitga mos.
Ey, jigit! Boshing ko'tar,
Yashagin jigitga xos!**

**Ozonda o'kirgan o'zingmi,
Burgutdek tikilgan o'zingmi.
Shaylandim, omad – bevafo,
Davraka kirsammi o'zim yo?**

**Egarga yarashgan o'zim,
Xudoyim qarashgan o'zim.
Elimda uloqqa cho'zildim,
Or-nomus talashgan o'zim!**

Adolat FAYZIEVA tayyorladi.



...Таҳририятда иш қизигандан-қизиди. Боз устига, ахборот агентлигидан узатиладиган расмий материални узоқ кутишиди. Ниҳоят, тунги иккilarга яқин иш яқунланиб, тайёр бўлган газета саҳифалари босмахонага топширилди.

Газетачиликнинг заҳмати оғир: ҳар бир жумла, керак бўлса, ҳар битта сўз устида бош қотирилади, кўз нури тўкилади. Бу жараён тўхтамайди,

ХЎРСИНИК

(Қатра)

буғун газетанинг янги сони «тандирдан чиқса», эртага кейинги сонини тайёrlаш керак...

Бурнини кўтаришга-да ҳоли қолмаган Жавоҳир бир амаллаб ўзи яшайдиган маҳаллага етиб олди. Йўлакка яқинлашаркан, иккинчи қаватдаги уйи балконига истар-истамас қаради. Ва ногоҳ тун қоронғусида балкон деразаси ортида турган

шарпага кўзи тушди. «Хотиним мени кутиб ҳалиям ухламабди-да», деган ўй ўтди хаёлидан.

Жавоҳир қадамини тезлатди, зиналарни тез-тез босиб, иккинчи қаватга кўтарилди. Бироқ тақиллатишга ҳам улгурмади, эшик очилди. Рўпарада онаси турар, унинг юз-кўзида чуқур хавотир ва ҳорғинлик зоҳир эди.

— Хайрият, келдингми? Ишинг ҳам бор бўлсин, болам, — хавотирини сўзларга кўчирди она.

— Бугун ишимиз кеч тугади. — Сўнг онасига савол билан юзланди Жавоҳир. — Балкондан қараб турган сизмидингиз, нега шу пайтгacha ухламадингиз? Келинингиз қани?

— Ҳа, негадир уйқум қочди, сени кутиб тургандим. Хотининг, болаларинг кута-кута ухлаб қолишиди.

...Жавоҳир муштипар онасининг ажин босган юзларига, ҳаёт синовларини кўравериб мунг чўккан кўзларига, аллақачон оқ оралаган сочларига боқди. Ич-ичидан хўрсинди, меҳрибонидан кечирим сўрамоқчи бўлди-ю, лом-мим дея олмади. Шу топда «Онажонимнинг менга баҳшида қилинган умри бадалини тўлай оламани?» деган савол уни қийнарди...

Камол ОЛЛОЁР.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA



HUNAR O'RGANGAN KAM BO'LMAS

Yaqinda IIV huzuridagi JIED 4-mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi jazoni ijro etish koloniyalari va manzil koloniyalarining ishlab chiqarish sexlarida tayyorlanayotgan mahsulotlar yarmarkasi tashkil etildi. Viloyat hokimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, korxonalar va tashkilotlar mutasaddilari, ulgurji savdo tashkilotlari mas'ullari qatnashgan yarmarkada 187 turdag'i mahsulotlar ko'rgazmaga qo'yildi.

Haqiqiy qo'l mehnati orqali yaratilgan mahsulotlar ishtirokchilarda katta qiziqish o'yg'otdi. Shu joyning o'zida 3 milliard 250 million so'mlik shartnomalar tuzildi. Yana 5 milliard 600 million so'mlik shartnomalar loyihasi kelishuviga erishildi.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatidagi mavjud jazoni ijro etish koloniyalari va manzil koloniyalaridagi korxonalarda 250 turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarilmogda. G'isht, gips, tikuvchilik, yog'och o'ymakorlik, mebel, metalga qayta ishlav berish, polietilen, hojatxona qog'oz ishlab chiqarish, oyoq kiyimlar, ishchilar maxsus kiyimlari, marmar tosh ishlab chiqarish sexlarida 3 ming 200 nafardan ortiq mahkumlar mehnat qilish bilan birga, «Ustoz-shogird» an'anasi asosida hunar ham o'rganmoqda.

– Inson kamolotida hunar o'rganish va mehnat orqali tarbiyalash eng ta'sirchan, eng samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning axloqan tuzalishida mehnatning roli muhim, – deydi JIED 4-mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish guruhi yetakchi mutaxassis, kapitan A'zam Jovliyev. – Bundan tashqari, bu

yerda egallangan hunar kelgusida ozodlikka chiqqan mahkumlar uchun hayotda asqatishi tayin. Boshqacha aytganda, bu ozodlikka chiqqanda kasb-kori ortidan ro'zg'or tebratib, jinoyatga qo'l urmasligi uchun yo'llanmadir.

Darvoqe, joriy yilda munosib xulqatvori va mehnatdagi yutuqlari uchun 1200 nafardan ortiq mahkumlarga ta-shakkurnoma, qo'shimcha uchrashuvlar, yaqinlari bilan telefon so'zlashuvlari berildi.

Mahkumlarga yaratilayotgan shartsharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar jazo muddatini o'tayotgan yurdoshlarimiz kelgusida to'g'ri hayot yo'lini tanlashida muhim o'rinn tutadi. Jumladan, yangi tahrirdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, mahkum jazo muddatini o'tagan vaqtida ishlagan ish haqi pensiya stajiga qo'shilishiga imkon berilgani ham bu boradagi katta o'zgarishlardan biri bo'ldi, deyish mumkin. Shu bois mahkumlar orasida kasb egallah, hunar o'rganishga bo'ilgan qiziqish ortib bormoqda.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.**

Qashqadaryo viloyati.

KASB FIDOVISI

YOSHLARNING YAQIN MASLAHATGO'YI

Xorazm viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni 2-otryad bo'linma komandiri, serjant Sanjar Sotimovning ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga 24 yildan oshdi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishdek mas'uliyatlari vazifani sharaf bilan uddalayotgan lavhamiz qahramoni o'zining fidoyiligi, kasbiga bo'lgan sadoqati tufayli hurmat-e'tibor topdi. Rahbariyatning, hamkasblarining ishonchini qozondi.

– Serjant Sanjar Sotimov xizmat intizomiga qat'iy rioya qilgan holda rahbariyat tomonidan berilgan har bir topshiriqni aniq va o'z vaqtida bajarishga intiladi, – deydi batalyon komandirining o'rincbosari, podpolkovnik Alijon Davlatov. – Jamoat ishlarida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirdirlarda ham faol. Uni ko'plab yosh xodimlar mehribon ustoz, yaqin maslahatgo'y sifatida hurmat qilishadi.

Lavhamiz qahramoni belgilangan hududlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish bilan bir qatorda, jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda ham jonbozlik ko'r-satib kelmoqda.

Tungi payt Urganch shahri Navoiy ko'chasida joylashgan do'kon eshidigini ochishga urinayotgan kimsa osoyishtalik pos-

bonlari e'tiborini tortdi. Serjant Sanjar Sotimov darhol hamrohi – safdar Nodir Xudoyberganov bilan bog' tomonga o'tib, unga yaqinlashmoqchi bo'lishdi. Buni sezgan yigit qo'lga tushmaslik uchun gocha boshladi. Sanjar hamrohini ko'cha boshiga yuborib, o'zi uning iziga tushdi. Jinoyatchi ko'p qavatli bino ro'parasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Uning uzoqqa ketolmasligiga ishonch hosil qilgan serjant yon-atrofni hushyorlik bilan kuzata boshladi. Shu payt bino yerto'lasidan temir eshikning taraqlagan tovushi eshitildi. Sanjar darhol shu tomonga yurdi. Qorong'ilikdan otilib chiqqan qochoq piyodalar yo'lakchasi bo'ylab qochishga urindi, ammo serjant S. Sotimov chaqqonlik bilan uni qo'lga oldi. Ma'lum bo'lishicha, urganchlik

bu kimsa muqaddam jinoyat sodir qilib, tergov organidan yashirinib yurgan qidiruvdagi shaxs ekan.

Serjant Sanjar Sotimov xizmat faoliyati davomida o'nlab jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishga, 5 nafar qidiruvdagi shaxsni qo'lga olishga erishgan. Sodir etilishi mumkin bo'lgan 24 ta huquqbazarlikning barvaqt oldini olish choralarini ko'rgan. Ko'cha va jamoat joylarida shubha ostiga olingan hamda ma'muriy huquqbazarlik sodir etgan ko'plab fuqarolarga nisbatan ma'muriy bayonnomasi rasmiylashtirib, qonun ustuvorligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shgan.

Yurtimiz tinchligi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyat hamda huquqbazarliklarga qarshi kurashishdagi fidoyiligi uchun serjant Sanjar Sotimov Ichki ishlar vazirining buyrug'iga muvofiq, II darajali «Ichki ishlar organlari-da benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

**Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.**

Xorazm viloyati.



OGOHLIK



XATO QIMMATGA TUSHMASIN

Yoshlarning imon-e'tiqodi va ilmi o'rtasidagi muvozanat yo'qolganda, ongda bo'shliq paydo bo'lgani sababli yot g'oyalarga ergashishadi. Bu bo'shliqni yot g'oyalalar o'zining «mujda»lari bilan to'ldirishi mumkin. Ya'ni, «adolat», «jihad», «qahramonlik» niqobi ostidagi soxta g'oyalalar yoshlarni manqurt qilib tarbiyalaydiki, bu xavf-xatardan doimo ogoh va sergak bo'lishimiz shart.

Internet orqali tarqalayotgan manbalarda ilm asosiga qurilmagan, ehtiroslarga berilgan chaqiriq va da'vatlar foydalanuvchilarning bu yo'naliishdagi axborotlarni tanqidiy fikrlashlarsiz qabul qilişlariga sabab bo'limoqda.

A.X. xorijda ishlab yurganida chet davlatning telefon raqamiga Telegram messenjerida nomsiz profil ochib, undan foydalaniib kelgan. Internet sahifalarida joylashtirilgan turli zararli materiallarni tomosha qilib, ulardan ta'sirlanib, yot g'oyalalar ta'siriga tushib qolgan. U mazkur profili orqali 2024-yilning avgustidan joriy yil aprel oyigacha bo'lgan vaqt oralig'ida Telegram messenjeridagi 118 kishidan iborat «Nashed R» nomli guruh tashkil qilib, ushbu guruhga qonunun taqilangan, aqidaparastlik g'oyalariiga yo'g'rilgan ma'lumotlarni ularshgan.

Ayblanuvchining xatti-harakatlari yuzasidan tergovga qadar surishtiruv ishlari olib borilib, jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soladigan materiallarni ularhib kelgani uchun unga Jinoyat

kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Afsuski, bu kabi yo'ldan adashgan yoshlar oramizda uchrab turibdi.

Xorijga ishlagani ketgan yoshlarning otanonalariga eslatmamiz shuki, farzandingiz kimlar bilan muloqotda, nima ish bilan mashg'ulligini doim so'rab-surishtirib turish zarur. Birgina axborot bilan dunyoqarashi o'zgarib, oilasiga, yaqinlariga, hatto tug'ilib o'sgan yurtiga dushmanlik kayfiyatiga tushib qolgan yoshlarni yo'lidan qaytarish, ularga to'g'ri tushuntirish berish lozim. Axborot xuruji qanchalik xavfli ekaniga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Bunday holatlarga jimgina qarab turish o'zimizga katta ziyon ekanini anglab yetishimiz darkor.

Ulug'bek ABDUVOHIDOV,
Mingbuloq tumani IIB huzuridagi
Tergov bo'linmasi tergovchisi,
katta leytenant.

KINOLOGIYA

«BARON» IZ OLDI

Ayni kezda Qashqadaryo viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi va uning quyi tuzilmalari xodimlari mavjud 45 ta sezgir jonivor ko'magida jinoyatlarning oldini olish bilan birga, sodir etilganlarini «issiq izida» ochilishiga munosib hissa qo'shishyapti. Maxsus yo'naliishlarga o'rgatilgan to'rt oyoqli ko'makchilar bilan birga joriy yilning dastlabki to'rt oyida 140 marta voqeja joylariga chiqildi. Xizmat itlari ishtirokida 59 ta jinoyat fosh qilindi.

Masalan, G'uzor tumani «Apardi» mahallasida ya-shovchi Mirza Meyliyev (ism-familiyalar o'zgartirildi)ga tegishli savdo do'konida o'g'rilik sodir etildi. Tergov-tezkor guruhi tarkibida voqeja joyiga chiqqan viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 4-kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdar I.Sultonov o'ziga

biriktirilgan «Baron» laqabli xizmat iti bilan voqeja joyida qoldirilgan ashyoviy dalillar orqali o'g'rining iziga tushdi. Natijada ko'p o'tmay mazkur jinoyatni Qarshi shahrida ya-shovchi, muqaddam sudlangan J.R. sodir etgani aniqlanib, undan «Redmi Note 8» rusumli telefon apparati tegishli tartibda hujjatlashtirib olindi...

Albatta, xizmatda ijobjiy natijalarga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q. Bunda kinolog xodimlarning bezabon jonivorlar bilan uzluksiz mashg'ulot o'tashi, kasbiy mahoratini oshirish uchun Ko'pkurash musobaqalarida o'zaro tajriba almashishi qo'l kelmoqda. Zamon talablari darajasidagi pitomnik esa kinologlar

**Mutaxassislarning
fikriga qaraganda,
itlar uch mingdan
besh mingtagacha
hidlarni ajrata bilish
qobiliyatiga ega.**



uchun tajriba va malaka oshirish maskani vazifa-sini o'tamoqda.

Zimmasidagi mas'uliyatni ortig'i bilan ado etayotgan xodimlarimiz, chunonchi, Kinologiya bo'linmasi katta mutaxassis-kinologi, katta serjant B.Mamanazarov, bo'linma 4-kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, safdar I.Sultonov kabi bir guruh soha fidoyilarining kunlarni tunlarga ulab qilayotgan fidokorona xizmati muvaffaqiyat garovi bo'lib xizmat qilmoqda.

Zokir NORMURODOV,
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.

ТИНИМ БИЛМАС ЭЛ ЎГЛИ



– Бўш ўтиришни ёқтирамайман, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Ҳаёт – бу ҳаракат дегани. Берилган умрни мудраб ўтказмаслик лозим.

Зухриддин Ҳакимовни ички ишлар соҳасига акаси Баҳодиржон Ҳакимовнинг ўз касбига бўлган ҳаваси етаклади. У узоқ йиллар божхона хизматида фаолият юритган. Хизмат формаси ўзига ярашиб, виқор бағишлаб турарди. Буни кўриб уканинг дилида ҳавас уйғонди. Икки акага эргашиб, Ҳасанбой ҳам ички ишлар соҳасини танлади. Ҳозирда учаласи ҳам пенсияда.

– Отам агроном, онам уй бекаси бўлган. Улар 8 ўғил, 2 қизни ҳалол меҳнат билан улфайтириди. Биз ҳам болалиқдан меҳнатда тобландик. Шу боис бугун барчамизниң ҳаётимиз тўқис. Лекин хизматига бел боғлаб, дуосини олайлик, десак, ота-онамиз йўқ. Бир кам дунё деганлари шу экан, – дея болалигини хотирлайди Зухриддин Ҳакимов.

У ҳарбий хизмат даврида кечган кунларини шундай ёдга олади:

– 1985 йилнинг ноябрь ойи эди. Аскарлар қишлоқдаги қудукни навбат билан қўриқларди. Йўқса, уни заҳарлаб қўйишлари ҳеч гапмасди. Ўша куни навбатчиликни шоғирконлик Истам Тоғаев деган хизмат дошимга топшириб кетишим билан у душман ўқидан ҳалок бўлган экан. У билан бирга нав-

батчиликда турган намангандик Қутбиддин Абдуллаевнинг кўлига ўқ теккан. Марҳум сафдошим билан яқин сирдош, дўст эдик. Афсуски, ҳарбий хизмат даври ана шундай фожиалари билан ҳам бир умр хотирамга мурланиб қолди.

Лавҳамиз қаҳрамони армиядан қайтгач, Олмаота маҳсус милиция мактабида таҳсил олиб, 1992 йилдан Андижондаги 1-сонли қамоқхонанинг маҳсус бўлимида фаолиятини бошлади. Шу тариқа 20 йил мобайнида юртимизнинг турли худудларида жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумлар билан ишлаш жараёнида кўплаб адашган, хато қилган шахсларни тўғри йўлга солиш учун иш олиб борди.

Зухриддин аканинг узоқ йиллик иш тажрибаси педагоглик касбида жуда қўй келади. Ёш авлодга қилган ҳуқуқбузарлиги ёки жинояти учун эртага уларни қандай жазо кутиб турганини аниқ ва асосли тарзда тушуниради. Шунданми, у таълим бераётган йигит-қизлар мактаб тартиб-қоидаларига қатъий риоя этишади.

Кўпчилик ўз манбаатлари гирдобида қолган бир замонда Зухриддин Ҳакимов каби жонкуяр, миллатпарвар инсонларнинг борлиги факат яхшиликка хизмат қилади.

Нигораҳон ТЎХТАМАТОВА,
ӯз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

Истеъфодаги подполковник Зухриддин Ҳакимов, 15 йилдирки, Шаҳриҳон туманиндағи 64-мактабда ҳуқуқ фанидан дарс берип, ёш авлодга ватанпарварлик туйғусини сингдириб келмоқда.

ИККИНЧИ ИСТЕДОД

Масъулият ва шараф эш бўлган касб эгалари, яъни ички ишлар органлари ходимлари орасида кўнгли санъатга ошнолар кўп. Тошкент шаҳар Янгиҳаёт тумани ИИОФМБ ижтимоий профилактика гуруҳи катта инспектори, капитан Самариддин Мелиев қўй-қўшиқнинг сеҳрли оҳангини юракдан ҳис этиб, яқинлари, ҳамкаслари қалбига дилбар ижроларини манзур эта олган ходимлардан бири.

ҚЎШИҚ – ҚАЛБНИНГ САДОСИ

– Тошкент давлат санъат институтининг эстрада ва оммавий томошалар режиссёrlиги йўналишини тамомлаганман, – дейди у. – Бироз муддат ўз йўналишимда фаолият олиб бордим. Шу кезларда туну кун эл хизматига камарбаста инсонлар эътиборимни тортиди. Хизматга ҳужжатларимни топшириш жараёнидаги савол-жавобларда таълим йўналишимга эътибор қаратган инспекторнинг «Келажак учун яхши танлов қилибсиз, санъаткор ҳам, ходим ҳам халқнинг орасидаги одамлар. Тамомлаган йўналишингиз, албатта, хизматингизни тўлдиради», дегани тизимда ўзимни топа олишга бўлган ишончимни янада мустаҳкамлаган. Насиб қилган экан, синовларни муваффақиятли топшириб, хизматга қабул қилиндим. Мана, ўн уч йилдирки, шу соҳада билдирилган ишончни оқлашга ҳаракат қилиб келяпман. Катта саҳналарга чиқмаганман, аммо жамоавий тадбирларда, яқинларим, дўстларим, ҳамкаслар даврасида қўшиқ қуилаб тураман.

Капитан Самариддин Мелиевга устозлари – истеъфодаги подполковниклар Файрат Даминов, Зафар Эргашев ҳамда майор

Абдуҳаким Абдурайимовларнинг кўрсатган йўл-йўриқ ва берган маслаҳатлари доим асқатади.

– Муаллифлик қўшиқларим ҳозирча йўқ, – дейди Самариддин Мелиев. – Кўпинча Ўзбекистон халқ артисти Озодбек Назарбеков, Ҳуршид Расуловнинг она, Ватан, муҳаббат, инсонийлик ҳақидаги тароналарини ижро қиламан. Санъат шундай оламки, унда бирор бирорни тақорламайди. Устоз санъаткорларнинг фақат уларгагина хос нолалари бўлади. Баъзан уларнинг ижодига қизиқиши юқори бўлган ҳаваскорлардан ҳам ёқимли ижролар яралади. Яъни, бир қарашда тақлиддек кўринган ижроларда ҳам ҳаваскорнинг юраги бўлади.

Ҳа, санъат ҳар жиҳатдан сеҳрли олам. Бу оламни тушуниш учун ижрочи ёки тингловчи бўлишнинг фарқи йўқ. Энг муҳими, тушуниш керак. Буни яхши билган ҳаҷрамонимиз хизматдан қайтгач, қизи Мубинахонга ҳам куйлашни, чолғу асбобларини чалишни ўргатади. Зоро, санъат инсон юрагига тўсиқларсиз кириб бориб, унинг акс-садоси эзгулик бўлиб унади.

**Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ӯз мухбиримиз.**

Тошкент шаҳри.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda_uz

 Размышление на тему


ДОВЕРИЕ НАЧИНАЕТСЯ С ДЕТСТВА

Сложно переоценить роль, которую играют правоохранительные органы в жизни общества. Их задача – защищать, предотвращать преступления, обеспечивать порядок. Однако в сознании некоторых людей с самого детства складывается противоположное представление.

И часто это начинается с родительских слов.

Фразы вроде «Будешь себя плохо вести – тебя заберут», «Вон, инспектор идет – сейчас к тебе подойдет» кажутся взрослым безобидным способом повлиять на поведение ребенка. Но на деле они формируют у него стойкую ассоциацию: правоохранительные органы – это страшно, это наказание.

Такое искаженное восприятие не исчезает с возрастом. Повзрослев, человек может избегать контакта с сотрудниками правоохраны даже в ситуациях, когда помочь действительно нужна. Там, где должно быть доверие и ощущение защищенности, возникает настороженность.

Проблема недоверия – сложная и многослойная. Она включает в себя как реальные ошибки и перегибы в системе, так и укоренившиеся общественные стереотипы. Но именно родители – часто первыми – подкрепляют этот негатив, пусть и не преднамеренно.

А ведь все должно быть наоборот.

Ребенок с раннего возраста должен знать: если



потерялся, если случилась беда – к кому можно обратиться? К человеку в форме. Если кто-то обидел – взрослые из органов помогут. Доверие формируется с первого опыта, с первых объяснений.

Сотрудники органов внутренних дел – такие же члены общества, и доверие к ним начинается в семье через понимание их роли. Через личный пример: когда взрослые уважают закон, не боятся, а взаимодействуют на равных.

Поэтому с самого раннего возраста детям нужно объяснять: сотрудники ОВД – это те, кто помогает. Кто следит за безо-

пасностью, кто приходит на помощь, кто работает во благо общества.

Взрослые должны показывать своим примером уважение к закону и тем, кто его обеспечивает. Нельзя допустить, чтобы у ребенка формировался негатив к тем, кто должен быть символом защиты. Иначе мы сами создадим поколение, которое не будет верить в справедливость.

Сотрудники органов внутренних дел – это часть общества, которой нужно доверять. И доверие начинается с детства.

Подготовила
Юлия ЧАЙКИНА.



МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(16 – 22 июня)



Құй. Баъзи ишлар күнгилдагидек кетмаётган бўлса, тушкунликка тушманг. Буларнинг ҳаммаси яхшиликка бўлганини англайсиз. Шахсий ҳаёт борасида ҳушёр ва синчков бўлган маъқул. Бу ҳафта иш билан боғлиқ учрашувлар учун муваффақиятли даврdir.



Бузоқ. Сўнгги даврда ўзингизга жуда кам вақт ажратаяпсиз. Саломатлик ва ташқи қўринишга жиддий эътибор қаратинг. Бу ҳафтада ийрик пул айланмалари билан боғлиқ ҳаракатларни амалга ошириш тавсия этилмайди. Айни дамда маблағ сарфлаш эмас, пул ийғиш лозим бўлади.



Эгизаклар. Душанба ва сесанба кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, шу кунларда сармоали таклифлар олишингиз мумкин. Айни ҳафта фаол ҳаракатлар даври бўлиб, келгуси муваффақиятларга эришиш ва фаолиятда ёрдам берувчи фойдали алоқаларни ўрнатиш учун яхши имкониятдир.



Қисқичбақа. Ҳафта якунигача тўпланиб қолган барча ишларни ҳал этишга ҳаракат қилинг. Вақт ўтиши билан уларни бажариш қийинчилик туғдириши мумкин. Ўзингиз учун вақт ажратинг, масалан, оқшомлари сайрга чиқинг, ҳафта охирида мароқли дам олинг.



Арслон. Бу ҳафта улкан иш режаларини тузишга ошиқманг, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг. Негаки бу ҳафтада касбий соҳангизга оид қийинчиликлар юзага келиши, пул йўқотишлар кузатилиши мумкин.



Паризод. Бу ҳафта катта даромадни ваъда қилмоқда. Яхшигина пул ишлаб олиш таклифи келиб тушса, бундай имкониятдан фойдаланиб қолинг. Яқинлар билан муносабатда одатдагидан мулойимроқ ва меҳрибон бўлинг. Уларга айни дамда сизнинг қўллаб-куватлашингиз жуда зарур.



Тарози. Кўнгил хотиржамлиги ва сокинликдан, севимли ишингиздан ва ёқимли инсонлар билан мулоқотдан баҳра олинг. Ҳафтанинг иккинчи ярми истиқболли режалар учун самарали давр, уни қўлдан бой бермасликка ҳаракат қилинг.



Чаён. Бу ҳафта можаролар, келишмовчиликлар ва баҳс бойлашлардан йироқ туринг. Кутилмаган муаммолар юзага келиши мумкин. Шу боисдан ҳис-ҳаяжонларингизни бошқариб, имкон борича босиқлик билан ҳаракат қилганингиз маъқул. Оғир бошланган ҳафтанинг иккинчи ярмида атрофдагилар билан муносабатингиз самимилашиб, ўзингизни енгил ҳис қиласиз.



Ўқотар. Бу ҳафта ўзингизга вақт ажратиш учун қулай вақтдир. Ишда рағбатлантириш олиш ёки лавозимингиз кўтарилиши эҳтимоли бор. Лекин ҳиссиятга берилиб, хатога йўл қўйиладиган вазиятлар юзага келиши мумкин. Шунинг учун ҳар бир иш-ҳаракатни яхшилаб ўйлаб кўриб, сўнгра амалга оширинг.



Тоғ эчкиси. Сафарлар, саёҳатлар ва янги иш бошлаш учун қулай давр. Шунингдек, бу ҳафтада режалашибирган муҳим иш учрашувлари муваффақиятли кечиб, бизнес ва шахсий ҳаётда кўпгина ижобий натижалар олиб келади. Ҳафтанинг сўнгги кунларини оила даврасида яқинларингиз билан ўтказинг.



Қовға. Мазкур ҳафта оилавий масалаларни ёки анчадан бери ўз ечимини топа олмаётган муаммоларни ҳал этиш учун қулай даврdir. Ушбу кунларда кайфиятингиз кўтарилик бўлиб, кўл урган аксарият ишларингиз бароридан келади. Бунинг учун янада фаол ҳаракат қилиш талаб этилади, холос.



Балиқ. Ижодий шихоат бошингиз билан ишга шўнғишига мажбур этиши мумкин. Ниманидир қўл меҳнати ёрдамида бажариш зарур бўлса, буни ҳеч иккиланмай, албатта, амалга оширинг. Айнан ҳозир тўғри қарор қабул қилиш учун қулай даврdir. Даромад келиши аниқ бўлса-да, пулларни беҳуда сарфлашдан тийилинг.

САЛОМ, МУНДИАЛ!



*Буюклиги Амир Темурнинг чиндир,
Кенгайиб боргандир ийл сайн сарҳад.
У қанот ёзганда мисли лочиндир,
Тенг кела олмаган қузгуну қалхат.*

*Темур Конадзе ҳам бизга чин қондош,
Осиёни олиб, юз тутди жаҳонга.
Илло мағлубият, ғалаба ёндош,
Ўз сўзини ёзди яшил майдонга.*

*Янада юксакка йўл олди лочин,
“Қатар” бўлди рақиб бизга бу сафар.
Араблар ололмай аламли ўчин,
Яна насиб этди бизларга зафар.*

*АЗИЗ ОЁГИДАН ОТИЛГАН КОПТОК
Рақиб дарвозин тўрига тушди.
Ғалаба мушагин отгувчи тўпдек,
Шодон ҳайқириқлар самони қучди.*

*Юртбошим бош бўлиб майдонда турди,
Яратган қўллади меҳнаткаши халқни.
Шомуродов шоҳона голини урди,
Юртим бир одамдай оёққа қалқди.*

*ЎЙИННИНГ ЭНГ СҮНГГИ НУҚТАСИ БЎЛДИ
Игорь Сергеевнинг учинчи голи.
Бутун мамлакат шодликка тўлди,
Ўзини кўрсатди ўзбек футболи.*

*Жаҳон дарвозаси – эндиги марра,
Уни забт этишга бизлар қодирмиз.
Ки биз Жалолиддин, шубҳа йўқ зарра,
Темурбек наслидан бўлган Бобурмиз.*

Темир ҚУРБОН.



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rınbosarları

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Kamol OLLOYOROV
Radik TUMPAROV

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbir

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^h-uy.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №1579.
Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45794 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqtı – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlар egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosil-ganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.



ISSN 2010-5355